

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**Tabiiy fanlar va geografiya
fakulteti dekani:**

_____ dots. V.Azizov
“ _____ ” 2012 yil

**“Himoyaga ruxsat beraman”
kafedra mudiri**
_____ dots. B.Baratov
“ _____ ” 2012 yil

TABIIY FANLAR va GEOGRAFIYA FAKULTETI

**5440500-Geografiya kundizgi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bosqichi
bitiruvchisi**

RAHIMOVA DILDORA A'ZAMJONOVNANING

**TURISTIK KORXONALARDA AHOLI BANDLIGINING MINTAQAVIY
XUSUSIYATLARI (Namangan viloyati misolida) mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

g.f.n., dots. SH.Jumaxanov

Namangan – 2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3
--------------------	----------

I-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH DAVRIDA TURISTIK KORXONALARDA AHOLI BANDLIGINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	8
--	----------

1.1.O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning roli.....	8
1.2.Turizmning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari va uning tasnifi.....	20
1.3.Xalqaro turizmning tarixi va rivojlanishi.....	33
1.4.Turistik korxonalarida aholi bandligining nazariy asoslari	41

II-BOB. NAMANGAN VILOYATI TURISTIK KORXONALARINI RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI.....	47
---	-----------

2.1.Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va turizm industriyasini rivojlantirish uchun imkoniyatlari.....	47
2.2.Namangan viloyati turistik korxonalarining aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyati.....	59
2.3.Namangan viloyati turistik korxonalari muammolari va ularni xalq etishning ustivor yunalishlari.....	69

Xulosa.....	79
--------------------	-----------

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	82
---	-----------

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda chuqur o'zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha tomonlarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bunda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda.

Joriy yilning **“Mustahkam oila yili”** deb e'lon qilinishi munosabati bilan 2012 yil uchun belgilangan maqsadlarga erishish bo'yicha dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan, jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashda oilaning o'rni va ta'sirini oshirish, har bir oilaning moddiy farovonligini oshirish orqali xalq farovonligini yuksaltirish masalalariga alohida e'tibor qaratildi¹

Mohiyati va ahamiyatiga ko'ra g'oyat keng ko'lamli bo'lgan, Prezidentimiz Islom Karimovning **“2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”** mavzusidagi ma'ruzasini chuqur va har tomonlama o'rganish, unda zikr etilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatini anglash, 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirish borasidagi kuch va imkoniyatlar, imkoniyatlar, mexanizmlar haqidagi bilim va ma'lumotlarni talaba yoshlar ongiga chuqur singdirish orqali ularning yurtimizdagi ulkan o'zgarishlar haqidagi tushuncha va tasavvurlarni kengaytirish, ana shu o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish maqsadida maxsus o'quv kursini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, insoniyat qadimdan dunyoni bilishga va uni anglashga, yangi yerlarni ko'rishga hamda o'zi uchun noma'lum bo'lgan hududlarni kashf etishga harakat qilgan. Bu orzularni amalga oshirish bevosita yaqin va uzoq hududlarga sayohatga chiqish orqali bajarilgan. Sayohat davomida ruhan dam olishgan va tabiatning go'zal mo'jizalariga hamda insonlar tomonidan yaratilgan ajoyib narsalardan hayratlangan. Ayni paytda shu mintaqa aholisini ijtimoiy va iqtisodiy holatiga bilvosita ta'sir ko'rsatgan.

Hozirgi kunda turizmning jahon xo'jaligidagi hissasi yil sayin oshib, u muhim makroiqtisodiy tarmoqlar qatorida rivojlanmoqda. Mazkur soha dunyodagi ko'pgina davlatlarning daromad manbai sifatida ularning milliy iqtisodiyotida asosiy o'rin tutmoqda. SHu jihatdan O'zbekistonda mazkur tarmoqqa e'tiborni kuchaytirish muhim masalalardan biridir. Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida O'zbekiston milliy iqtisodining barcha tarmoqlarida tub islohatlar olib bormoqda. Jumladan, turizmni rivojlantirishga ham davlat tomonidan ustuvor ahamiyat berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov o'zining asarlarida va amaliy faoliyatida ulug' ajdodlarimiz qoldirgan boy tarixni, qadamjoylarni, qabrlarini va shu davrlarda qurilgan tarixiy obidalarni, hamda ular yashagan zaminni ko'rish butun dunyo sayyohlari azaliy orzusi ekanligini ta'kidlaydi². Darhaqiqat, ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish mustaqil mamlakatimizning iqtisodiyotini mustahkamlash bilan bir qatorda uning jahon hamjamiyatidagi o'rnini yanada oshiradi.

Ayni vaqtda turizm sohasini rivojlantirish mintaqalar iqtisodiyotini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega. SHu bois, mustaqillik yillarida mazkur tarmoqni yuksaltirish uchun ko'pgina ishlar amalga oshirildi, unga tegishli ma'rifiy va huquqiy asoslar yaratildi. Ammo shunga qaramasdan, mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayapti, binobarin, turizm mintaqalarda yaxshi rivojlanmagan. Bu esa turistik korxonalarni iqtisodiy jihatdan tadqiq etish lozimligini asoslab beradi.

¹ **Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: Ўзбекистон, 2012 йил, 31-бет.**

² **Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. – 140-141 b.**

Namangan viloyati turistik imkoniyatlarini mavjudligi jihatidan O'zbekistonda alohida o'rin tutadi. Viloyatda tarixiy, arxitektura va arxeologik obidalar, tabiiy rekreatsiya maskanlari, diniy qadamjolar o'ziga xos turizm xazinasini hisoblanadi. SHu jihatdan viloyat turistik korxonalarini aholini ish bilan ta'minlashda ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Bu esa mazkur BMI ning dolzarbligi belgilab beradi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Aholiga xizmat tarmoqlarining iqtisodiy mohiyati, amal qilish mexanizmining ba'zi masalalari dastlab A.Smit, D.Rikardo, A.Marshall, Y.SHumpeter, J.Keyns, F.Xayek, E.CHemberlin, J.Robinson va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan. Mazkur qoida va nazariyalarni rivojlantirishga MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari N.S.Mironenko, I.T.Tverdoxlebov, P.N.Zachinyaev, N.S.Fal'kovich, N.N.Baranskiy, N.N.Kolosovskiy A.Yu.Yudanov va boshqalar tomonidan sezilarli hissa qo'shilgan.

O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida turistik korxonalarining dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari Prezident I.A.Karimovning qator asarlarida bayon etilgan. SHuningdek, turizmni respublika iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatini va uni yanada takomillashtirish yo'llari qator iqtisodchi olim va mutaxassislar, jumladan, X.P.Abulqosimov, Q.X.Abdurahmonov, A.Yu.Axmedov, A.U.Bahromov, E.T.Jumanov, T.T.Jo'raev, A.Islomov, G.Nodirxonova, Ya.SH.Fayzullaev, A.Yuldashev, J.Xoshimov, T.Toshmurov, A.Saidov, F.Komilova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Lekin yuqorida sanab o'tilgan olimlar ilmiy izlanishlarining asosiy yo'nalishlari turistik korxonalar rivojlanishining umumiy nazariy masalalarini tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, ular asosan dissertatsion va monografik tadqiqotlar tizimiga kiradi. Turistik korxonalarda aholi bandliginingmintaqaviy xususiyatlari kam o'rganilgan. Mazkur BMI yuqoridagi ishlardan shu jihati bilan ajralib turadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Mazkur tadqiqot ishining tadqiqot ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi turistik korxonalari tanlangan bo'lsa, predmeti esa Namangan viloyati turistik korxonalarida aholi bandligining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan iboratdir. Binobarin, Namangan respublikaning qadimiy va tabiiy-tarixiy maskani sifatida tilga olinadi va e'zozlanadi. Demak, Namangan viloyatida mavjud zamonaviy arxitektura loixalari asosida qurilgan binoalar, arxeologik, diniy va tabiiy obidalarining sayohlikdagi ahamiyatini hisobga olib, ushbu tadqiqotning ob'ekti sifatida tadqiq etish ahamiyatlidir.

Tadqiqot ishining maqsad va vazifalari. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi-Namangan viloyati misolida turistik korxonalarda aholi bandligini o'rganish va baholash asosida ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqarishdan iboratdir.

Tadqiqotning maqsadidan kelib chiqqan holda uning quyidagi vazifalari belgilandi va hal etildi.

- Turizmni milliy iqtisodiyotdagi o'rni hamda uning o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish;
- O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning roli va ahamiyatini baholash;
- Turistik korxonalarda aholi bandligining nazariy asoslarini tadqiq etish;
- Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va turizmni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish;
- Mintaqa turistik korxonalari asosiy muamolarini o'rganish va kelajak istiqboldagi ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonlari bilan bog'liq huquqiy va me'yoriy hujjatlar, xorijiy hamda malakatimiz yetakchi olimlarining ilmiy asarlari tashkil qiladi.

Tadqiqotga taalluqli ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi maxsus saytlaridan, «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi va uning Namangan viloyati mintaqaviy bo'limi, Namangan viloyati iqtisodiyotini boshqarish va statistika bosh boshqarmasidan olingan va muallif tomonidan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida retrospektiv, tizimli va statistik

tahlil, iqtisodiy-statistik guruhlashtirish, iqtisodiy-matematik bashoratlash, monografik, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanildi.

BMI ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot ishining natija va xulosalaridan viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va viloyatda aholini ish bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari tadqiqotning ilmiy-amaliy tavsiyalari, mavjud statistik ma'lumotlari, oliy o'quv yurtlari hamda litsey va kollejlarning o'quv jarayonini amalga oshirishda ko'mak beradi. Mazkur tadqiqotning xulosa va takliflari «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Namangan viloyati hududiy bo'limi kelajak faoliyatida e'tiborga olish katta ahamiyatga ega.

Ishning tarkibi. Mazkur BMI kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi. Uning umumiy xajmi 84 bet iborat bo'lib, ishda 4 ta chizma, 13 ta jadval va 45 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

I-BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH DAVRIDA TURISTIK KORXONALARIDA AHOLI BANDLIGINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1.O'zbekiston milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda turizmning roli

Turizm jahondagi ko'pgina mamlakatlar singari respublikamiz iqtisodiyotiga o'zining hissasini qo'shayotgan qishloq xo'jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori rivojlanib bormoqda. Biroq, hozirgi paytda turizm imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasida samarali foydalanilmayotganligi tufayli u xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlari ko'rsatkichlaridan ancha orqadadir.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonning geografik o'rni turizmni rivojlantirishda Markaziy Osiyo davlatlari ichida ancha qulaydir. Bu borada Respublika Prezidenti I.A.Karimov o'z asarida, «Amudaryo va Sirdaryo oralig'ida joylashgan O'zbekiston xalqaro aloqalarini yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qisman qulay jo'g'rofiy-strategik mavqega ega. Qadim zamonlarda SHarq va G'arbni bog'lab turgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu yerda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Yevropa va Yaqin SHarqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu yerda kesishgan» – deb yozadi.¹

Darhaqiqat, mamlakatimiz tsivilizatsiya o'choqlaridan biri sifatida dunyo xalqlari madaniyati, san'ati, arxitektura, shaharsozlik va ilm faniga ulkan hissa qo'shdi. O'lkamiz uzoq yillar davomida jangu-jadallar natijasida vayronalarga aylantirildi. Ammo O'zbekistonning qulay geografik o'rni uning yanada taraqqiy etishi uchun katta ahamiyat kasb etdi. Binobarin, mintaqaning rivojlanishida bevosita turizmning hissasi nihoyatda salmoqli bo'lgan. Chunki, Buyuk Ipak yo'li tugunida joylashgan Yurtimizda savdo-sotiq va boshqa aloqalardan tushgan daromadlar mamlakat xazinasiga katta ulush qo'shganligi shubhasizdir. Demak, mintaqaning geografik o'rni uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Ma'lumki, mintaqamizdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, ya'ni ulug' ajdodlarimiz: Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Al-Moturudiy, Al-Farg'oniy, Xo'ja Axror Vali, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqalarning milliy, ma'naviy va madaniy me'rosi bizning ulkan boyligimiz bo'lib, ular qoldirgan ko'plab tarixiy, diniy qadamjolar, tarixiy obidalari dunyo sayyohlarida katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, O'zbekiston tarixiy obida va yodgorliklarga boy bo'lgan shaharlari hamda o'ziga xos tabiati hamisha jahon sayyohlarini o'ziga jalb qilib kelgan. Biroq, sobiq sho'rolar davrida turistik aloqalarning markaz tomonidan boshqarilishi tufayli mustaqil ravishda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari cheklangan edi.

O'zbekiston turizmining o'tmishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u bevosita uzoq tarixga borib taqalsa-da, ammo tarmoq sifatida yaqin davrda paydo bo'lgan. Hozirgi respublikamiz hududlarida dastlabki ekskursiya sayohati byurosi 1936 yilda ochildi va O'zbekiston kasaba uyushmasi qoshida «Sayohat-ekskursiya boshqarmasi» tashkil etildi. Bu tashkilot yaqin va uzoqlarga uyushtiriladigan safarlar bilan shug'ullandi. 1962 yilda respublikaning viloyat va o'lkalari qoshida ham sayohat byurolari tashkil etiladi. 1982 yilga kelib viloyatlar va Qaraqalpog'istonda jami 13 ta «Sayohat va ekskursiya soveti», 29 ta «Ekskursiya va safarlarga chiqaruvchilar byurosi», 5 ta sayohatchilar mehmonhonasi, 12 ta turistik baza va kempinglar barpo etiladi (Qurbonniyozov, Sa'dullaev, Abirqulov, 1999).

Sayohatlar aksariyat ittifoqdosh respublikalarga markaz tomonidan tasdiqlangan dastur asosida amalga oshirilgan. Bu davrlarda respublikada sayohatlar ko'proq sport, o'lkashunoslik,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997 –b. 227-228

alpinizm, sog'liqni tiklash hamda boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan tanishish maqsadlarida olib borilgan. SHo'rolar hukmronligining inqirozi natijasida bu aloqalar o'z-o'zidan buzildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi dastlabki yillardan boshlab iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohatlar va o'zgarishlar davri boshlandi. Respublikaning suveren davlat maqomida dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinishi, 120 dan ortiq davlatlar bilan rasmiy diplomatik munosabatlarning o'rnatilganligi, shuningdek, Toshkentda ko'plab mamlakat elchixonalarining ochilishi qisqa davr ichida O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishida muhim qadam bo'ldi.

Aytish joizki, O'zbekiston o'z mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiyotini rivojlantirishda jahon tajribasidan keng foydalanmoqda. Bu o'rinda turizm sohasini rivojlantirishga davlat tomonidan katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, Prezident I.A.Karimovning 1995 yil 2 iyunda chiqargan «Buyuk Ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasini ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish» to'g'risidagi Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda dastlabki qadamlardan biri bo'ldi.

SHuningdek, turkiy tilli davlatlar boshliqlarining 1996 yil oktyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan IV – uchrashuvida Prezidentimiz «Buyuk Ipak yo'lini tiklash, ma'rifiy turizmni rivojlantirish, turkiytili davlatlarning madaniy me'rosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish» dasturini birgalikda ishlab chiqish, maqsadli sayyohat yo'nalishlarini kengaytirish va sayyohlikning tegishli infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida takliflarni oldinga surdi¹. Bundan tashqari, 1998 yil 15 aprelda qabul qilingan «2015 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish davlat dasturi» to'g'risidagi Vazirlar mahkamasi qarori turizmning kelajak istiqbolini belgilashda katta ahamiyat kasb etdi.

Yuqoridagi qaror va farmonlar asosida qisqa vaqt ichida respublikamizning ko'pgina mintaqalaridagi tarixiy, diniy obidalar, buyuk siymolar qabrlari, dahmalari, masjidular madrasalarini qaytadan tiklash va ta'mirlash ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Bu bevosita turistik ob'ektlarning ko'payishiga va yaxshilanishiga olib keldi.

Ma'lumki, BMT ning 1972 yilda qabul qilgan konventsiyasida xalqlarning nodir madaniy yodgorliklarini avaylab asrashga kelishgan. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha 500 dan ortiq madaniy yodgorliklar ro'yxatga olingan bo'lib, ular o'ziga xos takrorlanmas tarixiy-madaniy ansambllar, arxitektura yodgorliklari, tabiiy qo'riqxonalar va boshqa turistik ahamiyatga molik ob'ektlarni qamrab olgan (Okladnikova, 2002). SHu jihatdan O'zbekiston o'zining turistik ob'ektlarini salohiyati bo'yicha jahonda katta mavqega ega.

Respublikamizda hozirgi paytda 4000 dan ziyod tarixiy obidalar, monumental-arxitekturaga xos bo'lgan manzillar mavjud. Bular Budda diniga mansub topilmalar, Iskandar Zulqaynar yurishlari, arablar istilochiligi, mo'g'illar bosqini hamda Amir Temur va temuriylar imperiyasi va boshqa davrlardan dalolat beruvchi sayyohlik ob'ektlarini tashkil etadi. Ammo, ulardan bor yo'g'i 500 tasi turistlarni qabul qila oladi, xolos. SHundan faqatgina 200 ga yaqini xalqaro talablarga javob bera oladi (Hoshimov, 1998).

SHuningdek, O'zbekistonda dunyo tarixiy yodgorliklari qatoriga kirgan 21 ta tarixiy joylar aniqlangan. Bundan tashqari, mintaqamizda tabiiy iqlim xususiyatlari bilan bog'liq 90 dan ortiq iqlimiy, tabiiy hamda kishilar salomatligi uchun eng qulay davolash maskanlari bor. Ular asosan tog' va tog'oldi mintaqalarda joylashgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, O'zbekiston o'zidagi mavjud turistik ob'ektlar (madaniy, tarixiy, arxitektura, arxeologik obidalar, ziyoratgohlar, aziz sanalgan qadamjolar, dam olish, sog'lomlashtirish va h.k) salohiyati jihatidan nafaqat O'rta Osiyoda, qolaversa dunyoda o'ziga xos mavqega egadir.

SHu o'rinda, hukumatimizning oqilona siyosati va prezident tashabbusi bilan 1998 yilda islom ahlining buyuk olimlari, hadisshunoslari va islomiy bilimlarning dunyo miqyosida rivojlanishiga katta hissa qo'shgan Imom Buxoriy, Al Farg'oniy, Marg'iloniy, At-Termiziy,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997 – b.308-309

Motrudiy va boshqa zotlarning qadamjolari va qabrlarini qaytadan tiklash ishlari respublikada mahalliy va xalqaro sayyohlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga molik bo'ldi.

Turizm faoliyatini yaxshilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyulidagi farmoni bilan sayohat sohasida respublikada yagona siyosatni amalga oshiruvchi maxsus davlat organi – «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi tashkil etildi. Bu kompaniya qoshida viloyat va mintaqa filiallari ochildi. 1993 yil Bali shahrida bo'lib o'tgan Butunjahon turistik tashkilotini (BTT) 10 sessiyasida «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ushbu nufuzli tashkilotga to'la huquqli a'zo bo'ldi (To'xliiev, 1996).

1995 yil Qohirada o'tkazilgan BTT-ning navbatdagi 11- sessiyasida O'zbekiston «Atrof muhitni muhofaza qilish komiteti»ga va Istambuldagi 12 – sessiyasida Markaziy Osiyo mintaqasida «Buyuk Ipak yo'li» dasturida mamlakatimizning o'zni alohida ta'kidlab o'tildi. SHuningdek, YuNESKO-ning O'zbekistondagi qarorgohi, madaniyat vazirligi va Fanlar akademiyasi bilan hamkorlikda «Meros» dasturi asosida Buyuk Ipak yo'lida joylashgan tarixiy, arxitektura, arxeologik va boshqa yodgorliklarni tiklash, ta'mirlash va ilmiy o'rganish bo'yicha amaliy ishlar qilinishi bevosita respublikada turizm rivojlanishi uchun katta turtki bo'ldi.

Bundan tashqari, yuqori saviyada o'tkazilgan BTT- ning Samarqand (2000) va Xivada (1999) qabul qilingan deklaratsiyalarida O'zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirishga e'tiborni kuchaytirish lozimligi ta'kidlab o'tildi. 1993 yilda tasdiqlangan «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining qonuni hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab noyob hamda ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, sanitariya, sog'lomlashtirish, iqtisodiy nuqtai nazardan milliy boylik va umumhalq mulki bo'lmish bebaho tabiiy ob'ektlarning muhofaza etishning umumiy va tashkiliy asoslarini belgilab berdi.

2000 yil Toshkentda «Buyuk Ipak yo'lida turizm» mavzusida o'tkazilgan xalqaro yarmarka O'zbekistonda turizm taraqqiyoti va uning boy an'analarini targ'ib qilish borasida muhim voqeaga aylandi. Bu an'ana davom ettirilib, 2000 yili respublikada o'tkazilgan yarmakada 35 mamlakatdan kelgan 200 ta sayyohlik firmalari ishtirok etdi (Ahmedov, 2002). Aytish kerakki, respublikada qisqa davr mobaynida turizmga e'tiborning kuchayishi hamda xuquqiy va tashkiliy asoslarining yaratilishi mazkur tarmoqni rivojlantirishni va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish lozimligini ko'rsatmoqda

Mutaxassislar tahlili shundan dalolat beradiki, dunyo miqyosida 2008 yilda sayyohlar soni 625 mln. kishini tashkil etgan bo'lib³, o'rtacha yillik o'sishi 14,8 foizni, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida esa 8,8 foiz ko'rsatkichga ega bo'lgan (Nazarova, Komilova, 2008).

1- jadval

O'zbekistonda turizmning o'sish dinamikasi
(1993-2010 yillar)

Ko'rsatkichlar	1993	2000	2002	2004	2006	2008	2010
O'zbekistonga Hamdo'stlik va chet mamlakatlardan kelgan jami sayyohlar (ming kishi)	92,3	59,8	92,0	173,8	252,9	274,0	278,0

³ Ushbu ko'rsatkich 1950 yilda 25,3, 1960 yilda 71,2, 1965 da -113,9 va 1970 yilda 169,0 mln kishiga teng bo'lgan (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981, b.29)

1993 yilga nisbatan turistik marshrutlar dinamikasining o'sishi (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)	100,0	64,8	153,8	188,9	145,5	100,7	101,4
--	-------	------	-------	-------	-------	-------	-------

Jadval: «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Respublikada turizm sohasi makroiqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida mavqeini o'sib borishi, mamlakat siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o'zining salmoqli ulushini qo'shishi shubhasizdir. Bugungi kunda mamlakatimizda turistik faoliyat bilan 350 dan ortiq korxona va tashkilotlar shug'ullanmoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 1993-2008 yillargacha bo'lgan davr mobaynida jami turistik marshrutlar 3 martaga, chet ellik sayyohlar salmog'i 6 foizga, shuningdek, mahalliy sayyohlik 1,4 foizga ko'paygan.

Butunjahon turistik tashkiloti bashoratiga ko'ra, O'zbekiston XXI asr o'rtalariga kelib Markaziy Osiyoning yetakchi turistik mintaqasiga aylanishi va bu yerda turistik marshrutlarning 15 foizga oshishi taxmin qilinmoqda. Respublikada turizm dinamikasiga nazar soladigan bo'lsak, u yil sayin o'sib borishi kuzatiladi.

Hamdo'stlik va chet ellardan kelgan sayyohlar oqimining ko'payib borishi mintaqaning xalqaro turizm imkoniyatlarining yuqoriligidan dalolat beradi. Masalan, respublika bo'yicha 1993 yil jami 92,3 ming sayyohlarni qabul qilgan bo'lsa, 2008 yilga kelib u 274 ming kishini tashkil etgan. Demak, mamlakatimizda sayyohlik yildan-yilga o'sib bormoqda. Biroq, respublikada turizmni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, turistik infratuzilmani shakllantirish lozim. Buning uchun jahon andozalariga va tajribasiga tayangan holda ish olib borish maqsadga muvofiqdir.

2-jadval

O'zbekiston turizmining yillik o'sish ko'rsatkichi

Yillar	CHet ellik sayyohlar		Mahalliy sayyohlar		Jami	
	ming kishi	o'tgan yilga nisbatan % hisobida	ming kishi	o'tgan yilga nisbatan % hisobida	ming kishi	Foiz hisobida %
1993	92,3	100,0	243,7	100,0	336,0	100,0
2000	59,8	64,7	246,0	100,9	305,8	91,0
2001	92,0	153,8	213,7	86,8	305,7	99,9
2002	173,8	188,9	194,5	91,0	361,3	118,1
2004	252,9	145,5	231,2	118,8	484,1	133,9
2006	272,0	107,5	214,1	92,6	486,1	100,4
2008	274,0	100,7	275,7	128,7	549,7	113,0
2010	278,0	101,4	274,8	99,6	552,8	100,5

Jadval «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Darhaqiqat, har bir mamlakatda turizmning o'sib borishi va barqaror rivojlanishida bevosita hududning avvalo tinch iqtisodiy-ijtimoiy holati muhim o'rin tutadi. SHu nuqtai

nazardan respublikada xalqaro va mahalliy sayyohlikning rivojlanishi tinch siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liqdir. O'zbekiston mustaqillikka erishgan yillardan keyingi barqaror iqtisodiy va ijtimoiy hayoti dunyo ishbilarmon doiralari va sayyohlarining mintaqaga kelishi, shuningdek, «O'zbekiston dunyo halqlari uchun ochiq» shiori asosida qadimiy shaharlarimizda «ochiq eshiklar siyosati» olib borilishi xalqaro turizmning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra 1993 yildan 2010 yilgacha bo'lgan davr mobaynida xorijiy sayyohlar salmog'i oshganligini ko'rsatadi. SHuningdek, mahalliy sayyohlik ham ancha faollashgan. Buni quyidagi jadvaldan bilish mumkin.

Ma'lumki, sayyohlikning o'sishida transportning o'rni beqiyosdir. Jahon turizmining globalashuvi jarayoni o'z navbatida havo transportining umumlashuviga olib keldi. Jumladan, yirik aviokompaniyalar birlashib, «Uanuolrd» va «Star al'yans» al'yanslarni tashkil etdi. Ushbu al'yanslar har yiliga 180 mln. dan ortiq sayyohlarga xizmat qilmoqda (Aleksandrova, 2002).

3-jadval

O'zbekistondan yuborilgan sayyohlar

Yillar	CHet davlatlarga		MDH davlatlariga		Jami	
	Ming kishi	% *	ming kishi	%*	ming kishi	%
1999	34.3	100,0	36.6	100,0	70,9	100,0
2000	28.0	81,6	31.7	86,6	59,7	84,2
2001	43.3	154,6	14.6	46,0	57,9	96,9
2002	69.3	160,0	34.0	232,8	103,3	178,4
2004	94.8	136,7	26.1	76,7	120,9	117,0
2006	81.2	85,6	22.4	85,8	103,6	85,6
2008	53.4	65,7	9.5	42,4	62,9	60,7
2010	49.0	91,7	14.3	150,5	63,3	100,6

O'tgan yilga nisbatan % hisobida

Jadval: «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

O'zbekiston havo transporti ham mustaqillik yillarida tez rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda 65 dan iborat avialiniyalar Turkiya, Birlashgan Arab Amirli, Saudiya Arabistoni, Xitoy, Indoneziya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari hamda AQSH ga ochilgan bo'lib, ulardan vatanimiz fuqorolari, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari va xorijiy sayyohlar ham keng foydalanmoqda. Ayniqsa, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasi xizmatlari mintaqada turizmni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Mavjud ma'lumotlarga binoan, 2001 yil O'zbekiston havo yo'llari samolyotlari 1mln. 600 ming kishiga xizmat ko'rsatgan. Bu ko'rsatkichni keyingi yillarda yanada oshirish ko'zda tutilmoqda.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan ixtisoslashgan firmalar tomonidan turistlarni qabul qilish va xizmat ko'rsatish bilan birgalikda chet ellarga sayyohlar eksporti ham yo'lga qo'yilgan (3-4-jadval).

Jadvaldan ko'rish mumkinki, O'zbekiston sayyohlari 2008 yilda chet ellarga 94,8 ming kishi, shundan MDH davlatlariga 26,1 ming, jami 120,9 ming kishi sayohat qilgan bo'lib, 2006 yilga nisbatan o'sish 117 foizni tashkil etgan. Bashoratlariga ko'ra, XXI asr birinchi choragiga kelib respublika aholisining xorijiy mamlakatlarga ko'proq safar qilishi, iqtisodiyotning o'sishi, kishilar farovonligi, turmush sharoiti yaxshilanishi ko'zda tutiladi.

4-jadval

O'zbekiston turizmidagi iqtisodiy ko'rsatkichlari (2000-2010 yillar joriy narxlarida)

Yillar	Xizmat hajmi	Foyda	Harajatlar
--------	--------------	-------	------------

	Mln. so'm	Avvalgi yilga nisbatan % hisobida	mln.so' m	%	mln.so' m	%
2000	221.3	100,0	106.7	100,0	114.6	100,0
2001	811.1	366,5	236.7	221,8	574.4	501,2
2002	1776.0	218,9	399.1	168,6	1376.9	239,7
2004	3657.1	205,9	544.5	136,4	3112.6	226,0
2006	4699.6	128,5	382.3	70,2	4317.3	138,7
2008	4996,4	106,3	517.7	135,4	4478.7	103,7
2010	6882.4	129,7	666.2	128,6	6216.2	138,8

Jadval «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda ko'plab xalqaro ahamiyatga molik ilmiy, amaliy va madaniy tadbirlarning o'tkazilishi turizmning mintaqada yuksalishida zamin yaratmoqda. Sayyohlar oqimining oshishi o'z navbatida mamlakatga iqtisodiy foyda ham keltiradi. Quyidagi jadvaldan sayyohlik sohasidan tushgan daromad va xarajatlarni aniq bilish mumkin.

Darhaqiqat, 2000 yildan 2010 yilgacha bo'lgan davr mobaynida turizm sohasidan kelayotgan daromad, xizmat hajmi va harajatlarning o'sgan. Ayni paytda turizmning makroiqtisodiyotdagi umumiy ulushining bir foizga yaqin ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur tarmoqni yuksaltirish orqali kelajakda uni 15-20 foizga yetkazish imkoniyatlari mavjud. Binobarin, viloyatlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkich turlicha taqsimlangan bo'lib, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm kabi viloyatlarda yuqoriligini ko'rish mumkin (5-jadval).

Ma'lumki, chet ellik hamda mahalliy sayyohlarning respublikaning tarixiy shaharlariga qiziqishi yuqori bo'lib, ayniqsa Toshkent-Samarqand-Buxoro-Urganch-Toshkent, Toshkent-Samarqand-SHaxrisabz-Buxoro-Urgench-Toshkent yo'nalishlariga bo'lgan talabi kattadir. Turizm sohasida respublikaning boshqa viloyatlaridan ajralib turgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari eng yuqori ko'rsatkichga ega (1-chizma). Demak, yuqoridagi chizma mintaqalar turistik imkoniyati va salohiyati turlichaligidan dalolat berib turibdi.

O'zbekistonning eng muhim tarixiy va turistik shaharlari dunyoning qadimgi madaniyat, ma'naviyat va tsivilizatsiya markazlari sifatida jahon sayyohlarini o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda turistik marshrutlarning ko'plab yo'nalishlari mavjud bo'lib, ularga sayyohlarni qiziqtirish mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirishni taqozo etadi. Bizningcha, respublika viloyatlarining barchasida o'ziga xos turistik imkoniyatlari mavjud bo'lib, ularni o'rganish, mintaqalardagi mavjud turistik ob'ektlarni (tarixiy, madaniy, arxeologik, arxitektura, tabiiy rekreatsiya resurslar va h.k) chuqur turistik geografik jihatdan baholash va aniq marshrutlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

SHuningdek, turistik marshrutlarning qiziqarli bo'lishi uchun oddiygina ko'ringan turistik resurslarni ko'zdan qochirmaslik maqsadga muvofiqdir (Raxmatullaev,1996). Haqiqatdan ham respublikamiz hududidagi viloyat, tuman va qishloqlardagi ko'plab mavjud turistik ob'ektlar bizningcha, e'tiborimizdan chetda qolmoqda. Vaholanki, bunday kichik-kichik turistik qadamjoylardan yirik turistik majmualar vujudga kelishi mumkin.

Turizmga sarf qilingan mablag' boshqa turdagi barcha sarf harajatlarga qaraganda tezroq koplanadi (Ahmedov,2002). Binobarin, O'zbekistonda turizmni iqtisodiyotning muhim tarmog'i sifatida shakllantirish uchun hozirgi kundagi qilinadigan harajatlarning kelajakda o'z samarasini berishi shubhasizdir.

Albatta, O'zbekistonga keladigan sayyohlarning qancha vaqt turishi yoki davomiyligi ham katta mazmunga ega. SHuning uchun turistik infrastrukturani shakllantirish va turistik marshrutlarni kengaytirish, turistik xizmatlarni yaxshilash kabi muammolar hal etilishi kerak.

Jahondagi turizm rivojlangan davlatlarda bozor munosabatlaridan kelib chiqqan holda, turistik faoliyatni yuksaltirishga katta mablag'lar sarflamoqda. Masalan, 2006 yil Frantsiya 72 mln., Ispaniya 78 mln., Amerika Qo'shma SHtatlari 15 mln., Irlandiya 37 mln., Turkiya 20 mln., Hindiston 18 mln., Xitoy 5 mln AQSH dollari miqdorida harajat qilingan. Bu mablag'lar ko'proq

marketing xizmatiga ketgan. Ammo, ta'kidlash joizki, O'zbekistonda mazkur ko'rsatkich nihoyatda past darajada. Bizningcha, respublika miqyosida turizmni rivojlantirish uchun pul mablag'larning ma'lum bir qismi ilmiy yo'nalishlarga ajratish lozim, jumladan, eng ko'p sayohat qiladigan davlatlar sayyohlarining qiziqishini o'rganish va reklama xizmatini yaxshi yo'lga qo'yish ham maqsadga muvofiqdir.

Ma'lumotlarga ko'ra, jahon bo'yicha eng ko'p sayohat qiladigan aholi Germaniya (75 mln.), AQSH (52 mln.) va Angliya (45 mln.) kabi davlatlar bo'lib, ushbu davlatlar sayyohlari oqimini O'zbekistonga qaratish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Yaponiya, Koreya, Xitoy va boshqa shu singari mamlakatlardagi Budda dinining kelib chiqishi bevosita yurtimiz hududlarida (Qadimiy Termiz, Afrosiyob kabi shahar harobalari) paydo bo'lganligini nazarda tutadigan bo'lsak, bu davlatlardan minglab sayyohlarni yurtimizga kelishi tabiiydir.

SHuningdek, Islom va Arab davlatlari sayyohlarini ham ko'proq jalb qilish kerak. Buning uchun yuqoridagi nomlari tilga olingan davlatlarda O'zbekistonning turistik imkoniyatlarini namoyon qilish, reklamaga katta e'tibor qaratish, mintaqalarda turizm infratuzilmasini va turizm bozorini rivojlantirish lozim. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamizga xorijiy, jumladan, Yaponiya, Frantsiya, Germaniya va AQSH kabi davlatlardan sayyohlar oqimi oshmoqda. Buni quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin (5-jadval).

5-jadval

O'zbekistonga keladigan xorijiy sayyohlar (kishi hisobida)

t/r	Mamlakatlar	2000	2006	2009
1	Yaponiya	1520	16579	19400
2	Frantsiya	1871	13869	17500
3	Germaniya	681	12731	16800
4	AQSH	344	4782	8600
5	Italiya	317	2712	7060
6	Gollandiya	218	1107	5000
7	Angliya	333	1290	7900

O'zbekturizm milliy kompaniyasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi jadval guvohlik berishicha, Yaponiya AQSH, Italiyadan kelgan sayyohlar oqimi o'tgan yillarga nisbatan tez o'sgan. Darhaqiqat, hozirgi bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish talab va ehtiyojni hisobga olgan holda ish olib borish zarurligini isbotlab bermoqda. Buning uchun dunyo bozoriga chiqqanda talabni qondirish uchun ko'rsatiladigan xizmat turlari va ularning bahosini aniqlash lozim (Toshmurodov, 1998). Agar bizda 100 ga yaqin xizmat turlari bo'lsa, xorijiy davlatlarda ularning soni 400 dan ortiqni tashkil etadi. Demak, respublikada xizmat turlarini kengaytirish katta amaliy ahamiyatga ega.

Gaag (Indoneziya, 1989 y) deklaratsiyasida jahon turizmining xalqaro eksportdagi hissasi 6 foizni, savdo xizmatining 25-30 foizini tashkil etganligini qayd etdi. Bashorat qilinishicha, xalqaro turizmning yillik o'sishi 4 foizga o'smoqda. 2015 yilga kelib u jahon eksportida asosiy tarmoqqa aylanadi (neft va neftni qayta ishlash, avtomobilsozlik bilan birgalikda).

2009 yilda xalqaro turizmga mehnatga yaroqli aholining 10 foizi, ya'ni 208 mln. kishi turizmga aloqador xizmat bilan band bo'lgan bo'lsa, BTT ning bashoratiga ko'ra, 2015 yilga kelib ushbu ko'rsatkichning 360 mln. kishiga oshishi kutiladi. Xalqaro ekspertlarning fikricha,

O'zbekistonda turizmning xalq xo'jaligidagi hissasini 25 foizga yetkazish imkoniyatlari mavjud ekan.

Turizm sohasida bilimdon xorijiy mutaxassislar hisob kitobiga qaraganda, mamlakatimizda turizmdan keladigan daromad 1,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etishi kerak. SHu bois, mintaqa turizmini makroiqtisodiyotning eng muhim bo'g'ini sifatida qarash va rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

1.2.Turizmning ijtimoiy iqtisodiy-iqtisodiy xususiyatlari va uning tasnifi

Aholining o'zi yashab turgan mintaqa, hudud, o'lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turiga sayohat, ya'ni turizm deyiladi. «Turizm» termini frantsuzchadan olingan bo'lib, «tour» - aylana, aylanma harakat va «sayr-sayohat» degan ma'noni anglatadi. 1963 yilda BMT-ning Xalqaro turizmga oid Rim konferentsiyasiga muvofiq «sayyoh» deb, bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga safarga borib, kamida 24 soat ichida o'sha yerda turib, sayyohlik xizmatidan foydalangan kishiga aytiladi (Mironenko, Tverdoxlebov, 1981, b.11). Agar kishilarning ana shu muddat davomida mamlakat hududining boshqa joyida o'zi yashab turgan manzildan tashqarida bo'lishi mahalliy turizm deyiladi.

R.Abdumalikovning fikricha, turizm- sayohat paytida «tur» (belgi) o'rganish degan ma'noni bildirib, tog', adirlar va uzoq masofalarga sayohat qilish, oxirgi manzilga belgi qo'yib kelish yoki cho'qqiga chiqqanlikni bildirish uchun biron belgi qo'yishni anglatadi, deb ta'riflaydi (Abdumalikov, 1978). Bu fikr ko'proq maktab o'lkashunosligi va turizmi bilan bog'liqdir.


Kishilarning biror mintaqadan yoki hududdan boshqa joylarga safar qilishida bevosita geografik xususiyatlar, ya'ni qulay tabiiy geografik sharoit va siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Turistik resurslar maqsad va vazifalariga ko'ra tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi (Putrik, Sveshnikov, 1986). SHu jihatdan turizm iqtisodi bilan rekreatsiya resurslarning farqlarini aniqlash muhim masaladir.


Rekreatsiya resurslar dam olish, hordiq chiqarish, sog'liqni tiklash, tabiat go'zalligidan zavqlanib, ruhini ko'tarishga qaratilgan faoliyat majmuini o'z ichiga oladi. Rekreatsiya so'zi polyakcha «rekrasia» – dam olish, lotincha «rekratio» - sog'liqni tiklash demakdir. Binobarin, uzoq muddatga mo'ljallangan rekreatsion faoliyat turizmga mos keladi va shu nuqtai nazardan ham turizm iqtisodi an'anaviy milliy iqtisodiyotining bir qismidir. Rekreatsion turizm bevosita sog'liqni tiklash (sanatoriya, kurort, pansionat va h.k) bilan ham bog'liq. Bizningcha, turizm iqtisodi bilan rekreatsiya turizmi bir-biri bilan aloqador tushunchalardir. CHunki, rekreatsiya resurslar kishilar sog'lig'ini tiklash, sog'lomlashtirish, dam olish paytida turistik ekskursiyalar uyushtirilib, ularning sayohatlarga chiqishi bevosita turizm bilan bog'lanib ketadi. CHunonchi, «ekskursiya» lotincha – safar-sayohat (muzeylarga, tarixiy yodgorliklarga, tabiat qo'yniga va h.k) qilish ma'nosini anglatadi.

Ba'zi olimlar fikricha, turizm o'zining umumiy xususiyatlari va funktsiyalariga ko'ra uch tipga ajratildi; 1.Davolanish, 2.Sog'liqni tiklash-sport 3.Tanishuv turizmi (Erdavletov,2000). Bizning fikrimizcha, yuqoridagi tipologik funktsiyalarni hisobga olgan holda turizmni sog'lomlashtirish va sport, tanishuv, diniy, kasbiy va boshqa turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Dmitrevskiy bulardan tashqari, ilmiy, ekskursion, festival, xizmat, qishloq turizmlarini ham belgilagan (Dmitrevskiy, 2000)

SHu bois, sayyohning marshrutlarga chiqishidan maqsadi va istagi har xil bo'lishini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Turistik faoliyatda sayyoh yakka yoki maxsus marshrut asosida safarga chiqishi mumkin. SHuningdek, sayohat paytida bir vaqtning o'zida ko'pgina maqsadlarni, ya'ni, turizmning ko'pgina funktsiyalarida ishtirok etishi ham nazardan holi emas (1-chizma).

Aholining turmush sharoitini yaxshilanib borishi, uning bo'sh vaqtini ko'payishi, oilaning moddiy daromadini o'sishi dam olish paytlarini ko'ngildagidek o'tkazishga sabab bo'ladi.





SHu bois, kishilar dunyoni ko'rish, tabiat qo'ynida dam olish, sog'lig'ini tiklash va boshqa turistik manbalardan foydalanishni istashadi.

Bu esa bevosita turizm iqtisodi bilan bog'liq masaladir. CHunki, kishilar dunyoni xaritadan emas, balki o'z ko'zlari bilan ko'rishni istashadi (Zachinyaev, Fal'kovich, 1972). Darhaqiqat, sayohat davomida sayyohlar hududlarning turistik imkoniyatlarini safarlar uyushtirish orqali amalga oshiradi. Bu turizmning o'ziga xos xususiyatidir. SHu o'rinda, turizmning turlari va ko'rinishlari, jumladan, tashkiliy asoslari, davomiyligi, mavsumiyligi va yosh jihatlarini turlicha bo'lishini hisobga olish lozim (2-chizma).

Ma'lumki, turizmning 2 asosiy bo'limi mavjud bo'lib, bular ichki (mahalliy) va tashqi (halqaro) turizmdir. Mahalliy turizm-bu o'z mamlakati hududida qiyinchiliksiz (vizasiz, bojxona to'siqlarisiz va h.k) istalgan joyga safar qilishi, dam olishi va boshqa turistik faoliyatda mashg'ul bo'lishidir. Mahalliy turizm bilan xalqaro turizm bir biri bilan chambarchas rivojlanib boradi. Ammo mahalliy turizmda so'zlashuv, transport (ko'pchilik o'z shaxsiy avtomobillarida sayohat qilishini hisobga olib) va boshqa muammolar ancha oson kechadi. Mahalliy turizmning mintaqamiz (Markaziy Osiyo) uchun eng muhim jihati tanlagan sayyohlik marshruti bilan birgalikda diniy qadamjoylarga ziyorat qilishi hamda qarindosh-urug' va do'stlarni ko'rish bir vaqtning o'zida amalga oshishi mumkin. Mahalliy turizm o'zi yashab turgan mintaqani ko'rish va o'rganishi orqali ma'naviy dunyoqarashi oshadi hamda vataniga muhabbat uyg'onadi, shuningdek, aholini sog'lomlashtirish, ish qobiliyatini tiklash va mehnat resurslarining faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xalqaro turizm - bu bir davlatdan boshqa davlatga uyushtiriladigan sayohatdir. U viza, meditsina tekshiruvi, valyuta almashtirish va boshqa ko'pgina tadbirlarni o'z ichiga oladi. Xalqaro turizm ma'lum maqsadda uyushtirilgan marshrut yo'nalishi asosida guruh yoki yakka tartibda kechishi mumkin. Bunda eng avvalo sayyohlar shu davlatning o'ziga xos bo'lgan tarixiy obida va shaharlari, madaniyati, san'ati, urf odati bilan tanishish hamda boshqa betakror turistik ob'ektlaridan zavq olishdan iboratdir. SHuningdek, xalqaro turizm sport musobaqalari, ilmiy anjumanlar, konferentsiya, madaniy aloqalar, diniy marosimlar (masalan, haj safriga borish) bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Xalqaro turizm juda qadimdan rivojlanib kelgan. CHunki, o'sha davrda mamlakatlar o'rtasida aniq chegaralar bo'lmaganligi, bir davlatdan ikkinchi davlatga, shaharlardan-shaharlarga borish hech qanday qiyinchiliklar tug'dirmagan. Ayni vaqtda shu davlatning hududida joriy etilgan tartib qoidalariga qat'iy rioya qilinganligi uchun savdo-sotiq, madaniyat, san'at va fanning dunyo miqyosida yoyilishida turizmning ahamiyati katta bo'lganligi tarixdan ma'lumdir.

Kasbiy sayohat qadimdan rivojlangan bo'lib, hozirgi paytda ham bu sayohat eng ananaviy va faol hisoblanadi. Kasbiy, jumladan, ilmiy sayyohlik olimlar, ilm namoyondalari va boshqa kasb egalari tomonidan yuzasidan qilgan safarlarining turizm bilan aloqadorligidir. Biror hudud, mintaqaning tarixiy, arxeologik joylarini tekshirish, aholisi, etnografiyasi, madaniyati va san'atini o'rganish hamda ilmiy anjumanlar, hamkorlikdagi ilmiy ishlarni bajarish, malaka oshirish Sog'lomlashtirish, sog'liqni tiklash turizmi bevosita rekreatsiya turizmi bilan bog'liq bo'lib, kishilarning mehnat ta'tili vaqtlarida o'z salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan faoliyatdir. Sanatoriya-sog'lomlashtirish rekreatsiya majmuiga kurort deyiladi. «**Kurort**» so'zi nemis tilidan olingan bo'lib, u «**davolanadigan joy**» ma'nosini anglatadi.

Diniy turizm halqlarning o'z diniga bo'lgan xurmati va e'tiqoti nuqtai nazaridan muqaddas qadamjoylar, shaharlar, qabriston va aziz sanalgan maskanlarga ziyorat qilishdir.


Sport turizmi-sport o'yinlariga, musobaqalarga va sport musobaqalari o'tkaziladigan mintaqaga yoki mamlakatga sportchilar bilan birgalikda muhlislarning tashrifi demakdir. Qayd etish joizki, hozirgi paytda turizmning bu tarmog'i katta daromad manbai sifatida tez o'sib bormoqda.

Tanishuv turizmi keng qamrovli bo'lib, sayyohlikning barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog'liq. Turizmning bu tarmog'ida sayohat paytida sayyoh yangi joylar bilan

tanishish, ko'rish bilan ma'naviy zavq oladi. SHuning uchun yuqoridagi turizmning funktsional turlaridan barchasida asosan bu tarmoqning bevosita ishtirok etishi xarakterlidir.

SHunday qilib, **turizm iqtisodi(TI) iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning bir bo'lagi bo'lib, u turli mamlakat va mintaqalarda sayyohlikning shakllanishi, rivojlanish va xududiy tashkil etish xususiyatlari hamda qonuniyatlarini o'rganadi.** TI hududiy harakat oqibatida, ya'ni yer yuzining turli tomonlariga geografik marshrutlar uyushtirish asosida vujudga keladi. Bu esa mintaqada xizmat ko'rsatish tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirishga ham sababchi bo'ladi.

3-chizma. Turizmning ijtimoiy va iqtisodiy sohalar bilan aloqadorligi



Modomiki, barcha fanlar bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanar ekan, turizm iqtisodi ham ko'plab tabiiy va gumanitar fanlar bilan jumladan, rekreatsiya resurslar, tibbiyot geografiyasi, landshaftshunoslik, o'lkashunoslik, mamlakatshunoslik hamda iqtisodiyot, tarix, etnografiya, huquqshunoslik va boshqalar bilan bog'liq holda taraqqiy etadi.

Turizm iqtisodi o'z tadqiqot doirasida ayniqsa rekreatsiya resurslar bilan uzviy bog'liqdir. Sababi har qanday turistik sayohat davomida kishilar ma'lum darajada dam oladilar, o'z kuch-quvvatini tiklaydilar. Ayni vaqtda rekreatsiya, ya'ni dam olish, davolanish paytida albatta vaqt-vaqti bilan turli sayyohlik tadbirlari o'tkaziladi, marshrutlarga chiqiladi. SHu jihatdan bu ikki tarmoq bir-birini to'ldirib turadi.

Turizmning mintaqaviy xususiyatlari. Sayohat inson tafakkurini kengaytiradi, dunyoni teran anglashga xizmat qiladi. Kishilar yer yuzining bir biriga o'xshash bo'lmagan joylarini ko'rishni xohlashadi. Demak, biror hudud yoki mintaqaga sayohatga chiqishda tabiiy sharoit katta ahamiyatga egadir. Aksariyat sayyohlar bo'sh paytlarida tabiat qo'ynida dam olish, ovchilik qilish, sport va boshqa mashg'ulotlar bilan shug'ullanishni istashadi hamda sog'lig'ini tiklaydilar. SHuning uchun xorijiy davlatlardagi ko'plab turistik firma va kompaniyalar kengroq bu omillardan foydalanishga xarakat qiladilar. Bu o'rinda Janubi-sharqiy Osiyo, Afrika, Markaziy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya davlatlari turistik firmalari o'z xaridorlari

bo'lgan Yevropa va SHimoliy Amerika mamlakatlari sayyohlarini ko'proq tabiati go'zal hamda ekzotik joylarini ko'rsatishga katta e'tibor qaratadi.

Dengiz bo'yi, o'rmon, tog' va tog'oldi rayonlaridagi davlatlar, O'rta dengiz havzasida joylashgan hamda Malayziya, Indoneziya, Singapur va boshqa shunga o'xshash mamlakatlar sayyohlarni keng jalb qiladi. Bu, o'z navbatida, tabiiy turistik imkoniyatning yuqoriligidan dalolat beradi. SHuningdek, tog' tabiati, landshafti, rel'efi, iqlimi, tog' sporti va boshqa xususiyatlari bilan sayyohlarni o'ziga qiziqtiradi. Bunday tog' turizmi Yevropaning Al'pida, Osiyoning Himoloyida, Afrikaning Atlas tog'larida, Amerikaning Kordil'erasida keng rivojlangan.

Turizmning ekologik jihatlari. Turizmni iqtisodiy geografik jihatdan baholashda aholi va uning xo'jalik faoliyatining o'sishi tabiatga, tabiiy muhitga salbiy ta'siri o'rganilsa, tabiiy geografiyada esa atrof-muhit, tabiiy komponentlar va landshaftlarning antropogen omil ta'sirida o'zgarishi bilan bog'liq muammolar tahlil etiladi. Ushbu masalalar bilan turizmning nisbatan yangi yo'nalishi bo'lgan ekologik turizm yoki ekoturizm shug'ullanadi.

1997 yil Braziliyada bo'lib o'tgan Butunjahon kongressida qayd etilgan ma'lumotga ko'ra dunyo bo'yicha jami sayohatga chiqqanlarning 12 foizi ekoturizmga ya'ni, «yashil» sayohatga chiqishgan. G'arb olimlarining baholashicha, 1993 yil ekoturizmdan tushgan daromad 30 mlrd. AQSH dollarini, ya'ni uning xalqaro turizmdagi daromad hissasi 10 foizni tashkil etgan. Sayohatning bu turi asosan AQSH, Kanada, Avstraliya, Nepal, Ekvador, Braziliya, Fillipin, Keniya, JAR davlatlarida tez rivojlanmoqda (Aleksandrova, 2002).

Dunyo miqyosida turizmning eng yangi yo'nalishlaridan biri- «ekoturizm»ning asosiy maqsadi turistik marshrutlarni hududiy tashkil etishda atrof muhitni, tabiiy muvozanatni saqlab qolishga e'tiborni kuchaytirishdir. SHu nuqtai nazardan ekologik turizm umumiy ekologik muammolarni yechish bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda turizm landshaftlar ekotizimida turistik salohiyatidan ularga zarar ko'rsatmagan holda foydalanish jiddiy ahamiyat kasb etadi. Bu esa 1992 yilda Rio-de-Janeyroda BMT-ning atrof muhitni muhofaza qilishga bag'ishlangan konferentsiyasida qabul qilgan «barqaror rivojlantirish» tamoyiliga muvofiq keladi.

Turistik sayohatlarga chiqishdan maqsad sayohat paytida yangi joylarni ko'rish, tabiat go'zalligidan, toza tog' yoki o'rmon havosidan bahra olish, yovvoyi tabiat bag'rda dam olish, shuningdek, o'zga halq urf-odati, madaniyati, san'ati, tarixiy obidalarini ko'rishdan iboratdir. Binobarin, ekologik toza hudud ajoyib tabiat va boshqa rekreatsiya resurslari ekoturizmning muhim ob'ekti bo'lishi bilan birga, ayni vaqtda ekologik tang hududlarni ham tadqiq qilish ahamiyatdan xoli emas.

Ekologik turizmning o'sishini shundan ham ko'rish mumkinki, asosiy xalqaro turistik marshrutlar go'zal ekzotik tabiati va betakror turistik resurslari mavjud bo'lgan Avstraliya, Yangi Zelandiya, Janubiy Amerika, Afrika davlatlariga, Gavayya orallariga to'g'ri kelmoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, xalqaro turizm bozorida ekoturizmning hissasi hozirgi vaqtda 1/5 ga yetdi.

Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san'at, musiqa va boshqa turistik imkoniyatlarga nihoyatda boy. Bundan tashqari, O'zbekistonning betakror tabiati, tog' va daryolari, cho'l va vohalari, ko'l va landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Ularni ekoturizm nuqtai nazaridan o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dengiz va okeanlarda nihoyatda katta turistik imkoniyatlar mavjud. Keyingi paytlarda dunyo okeani bo'ylab yer sharining turli qismlariga sayohatlarga chiquvchilar soni tez o'sib bormoqda. CHunki, dengiz sarguzashtlari, iqlimi, go'zalligi, tabiati, hayvonot dunyosi, orollarining o'ziga xos tabiati bilan tanishish kishiga zavq bag'ishlaydi.

O'rmon ham dam oluvchi va tabiat qo'yniga sayr qiluvchi sayyohlarni o'ziga tortadi. O'rmon o'zining kislorod zaxirasi, o'simlik va xayvonot dunyosi bilan, shuningdek, sog'lig'ini tiklovchi va sokinlikni istovchi sayyohlar uchun muhim turistik ob'ekt hisoblanadi. SHu bois, botanik bog'lar, parklar, milliy bog'lar sayyohlarning eng gavjum joylaridir.

Daryo va ko'llar o'ziga xos landshaft, mikroiqlim xususiyatlari kishilarning asosan mavsumiy dam olishi, baliq tutishi, suv sporti, cho'milish joylari (plyajlar) va hokazolar

sayyohlarni qisqa vaqt davomida maroqli dam olishini ta'minlaydi. Bejis emaski, hozirgi paytda ko'plab dam olish uylari ushbu turistik ob'ektlarda qurilgan.

Turizm yaxshi rivojlangan Italiya, SHveytsariya, Ispaniya kabi mamlakatlarda mahalliy va chet ellik sayyohlar uchun turistik firmalar tomonidan har xil marshrutlar asosida ekskursiyalar ko'proq daryo va ko'llarga uyushtiriladi. Bunda daryo va ko'llarning ekologik jihatdan tozaligini saqlab qolish nazarda tutiladi.

Respublikamizda ham qator katta va kichik daryo va ko'llar, suv omborlari mavjud bo'lib, ularning turistik salohiyati hozircha uncha ko'ngildagidek emas. Binobarin, bunday gidrologik ob'ektlaridan samarali foydalanish uchun avvalo keng ko'lamli geografik va kartografik tadqiqotlar o'tkazish, sayyohlik bilan shug'ullanadigan firma va kompaniyalar qiziqishini oshirish lozim. Masalan, Samarqand shahri va uning atrofi ko'l va bog'lari nihoyatda turizm uchun qulay. Ammo shaharni kesib o'tgan Zarafshon daryosi qirg'oqlariga faqatgina tartibsiz mavsumiy, mahalliy sayyohlar kelib ketadi, xolos. Vaholonki, shaharning qulay turistik imkoniyati va demografik sig'imini hisobga olib, Zarafshon daryosi sohilida, Samarqand dengizi (Xishrav suv ombori) va boshqalarda turistik xizmatni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Orol dengizi va Orolbo'yi hududlari ekologik tang zona hisoblanadi. Bu hududga bevosita tanishtiruv ahamiyatiga ega bo'lgan ekoturistik sayohatlar uyushtirish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, o'lkamizda qator baliq-ko'llar (mozorlar) mavjud bo'lib, ular Baxmal, Nurota, Yangiqo'rg'on va boshqa tumanlarda joylashgan. Albatta bunday ob'ektlarni ham mahalliy va xalqaro turizm dasturlariga kiritish lozim.

Tarixiy obidalar ekoturizmi. O'zbekistonning boy tarixi, uning bosib o'tgan yo'li va shon-shuhratidan dalolat beruvchi tarixiy obidalar uzoq yillardan beri saqlanib kelinmoqda. Biroq, keyingi yillarda aholi soni va ehtiyojining o'sishi, shaharlarning kengayishi va rivojlanishi (urbanizatsiya) sanoat hamda transportning yuksalib borishi ta'sirida bunday ob'ektlarda ekologik vaziyatning keskinlashuvi yuzaga kelmoqda. Demak, aytish mumkinki, tabiiy muhit, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi nomutanosiblik oxir oqibat ekologik vaziyatning yomonlashuvi, ekoturistik vaziyatning salbiy ko'rinishini vujudga keltiradi.

Tarixiy yodgorliklar bilan tanishish respublikamizda juda ko'p bo'lgan qadimiy shahar xarobalarini bevosita ko'rishni ham nazarda tutadi. SHu jihatdan Axxi, Afrosiyob, Ayoqqal'a, Kampirqal'a, Tuproqqal'a, Pop, Nasaf, Kosonsoy kabi shahar qoldiqlari sayyohlar diqqatini o'ziga jalb qilishi mumkin.

Tog' ekoturizmi bevosita tabiat bilan inson o'rtasida o'zaro to'qnashuvi qay tarzda kechishi bilan bog'liq. Yurtimizdagi ko'plab tabiat go'shalarini borki, u bevosita sayyohlarning dam olish va sog'lomlashtirish vazifasini bajaradi. Binobarin, tog' hududidagi hushmanzara joylar chet ellik sayyohlar uchun ochilmagan qo'riqdir. Biz ularni qiziqitira olsak, har bir sayyohni tabiat qo'ynida dam olish va sog'lig'ini tiklashga erisha olsak ekoturizmning imkoniyatlari nihoyatda kengayadi. Ammo buning uchun ekologik vaziyat va turizm xizmatini yaxshilash talab etiladi.

Mahalliy sayyohlarning mavsumiy dam olish paytlaridagi tartibsizligi natijasida o'simlik va xayvonot dunyosining payhon qilinishi, lola, ravoch, kiyik o'ti, tog' piyozi kabi noyob, tibbiyotda foydalaniladigan o'simliklarning yo'q qilinishi shu joylarda noxush ekologik vaziyatni yuzaga keltiradi. Bunday hududlarni qo'riqlash, avaylab asrash, dam olishni va turistik marshrutlarni tug'ri tashkil etish lozim. SHu maqsadda ekoturistik tadqiqotlar o'tkazish va quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- tog'lardagi hushmanzara va noyob tabiat go'shalarini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, buning uchun maxsus qo'riqxona va milliy bog'lar (parklar) tashkil etish;

- hududlarni turistik rayonlashtirish va ularni ekoturistik nuqtai nazardan baholash;

- sog'liqni saqlash xodimlari tomonidan shifobaxsh joylarni o'rganib chiqish;

- tog' ekoturizmini rivojlangan davlatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda yo'lga qo'yish va h.k.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, turizmni rivojlantirish maqsadida uning ekologik tomonlarini geografik jihatdan ilmiy o'rganish kelajakda katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun turistik ob'ekt va rekreatsiya, tabiiy zonalar va landshaftlar salohiyatidan samarali foydalanishda ularning ekologik xususiyatlariga e'tibor qaratish talab etiladi.

1.3. Xalqaro turizmning tarixi va rivojlanishi

Turizm qadimdan xalqlar o'rtasidagi (iqtisodiy, savdo sotiq, fan, madaniyat, san'at, hunarmandchilik va h.k.) aloqa manbai sifatida muhim ahamiyatga ega. Jumladan, eramizdan avvalgi 3-2 ming yillar davomida kishilarning yangi geografik joylarni ochish, o'zlari uchun qulay hududlarni egallab olish, boylik orttirish va boshqa maqsadlarda dunyoni o'rgana boshlangan.

«Buyuk Ipak yo'li» ning ochilishi va undagi xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bevosita turizm iqtisodiyotining tarixiga borib taqaladi. Bundan tashqari, Buyuk geografik kashfiyotlar davrida dunyo okeani bo'ylab sayyohatlar olamni bilish va yangi yerlarni ochish maqsadidagi turli geografik sayohatlar turizmning shakllanishida muhim omil bo'ldi. Bu o'rinda yurtimizning buyuk olim va mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Farobiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqalarning ham xizmatlari kattadir.

Mazkur fanning paydo bo'lishi va rivojlanish tarixini ba'zi ilmiy adabiyotlarda (Unitsiker, Mariotti va h.k.) o'ziga xos tarixiy bosqichlarga ajratgan. Jumladan, M.V. Sokolova turizm tarixini keng ko'lamli tadqiq etib, uni 4 bosqichga (Qadimgi sayohat, O'rta asr yurishlari va sayohatlar, Yangi davr turizmi rivojlanishi va XX asr turizmi) ajratgan (Sokolova, 2002). Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda turizm tarixini 3 qismga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Qadimgi hamda o'rta asr va uyg'onish davri turizmi;
2. Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davr turizmi;
3. Hozirgi zamon turizmi.

Ma'lumki, dastlabki turistik sayohatlar savdo sotiq maqsadlarida vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi, bundan 14 ming yil avvalgi qadimgi Misrda o'ziga xos tusga kirgan Misr shohi Xatshepsut dengiz ekspeditsiyasida sayohat uyushtiradi (SHapoval, 1998). Eramizdan avvalgi VI – asrda Misr firauni Nexao uch yillik sayohatni Afrika bo'ylab tashkil etadi. Keyinchalik esa misr zodagonlari ko'plab shaharlarga (Gretsiya, Rim va h.k.) sayohatga chiqa boshladi. Bu davrda turizm boylik topish uchun uyushtirilardi. SHuning uchun ular o'zlari uchun qulay yo'llar va dam olish joylari barpo etadi.

Boylik orttirish maqsadida bundan 2300 yil avval Ksenofont grek portini qurish, savdo rastalari va davlat uylari barpo etishni buyuradi. Bu unga katta daromad olib keladi. Ayni paytda mehmonxona xo'jaligi xizmatlari shakllantiriladi. Ba'zi yunon va rimliklar o'zi yashab turgan shahardan uncha uzoq bo'lmagan tog' va tog' oldi hududlarida dam olish, davolanish va ov qilish uchun maxsus joylarni barpo etishgan.

Turizm ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin tez o'sib bordi. K. Liberening ta'rificha, «Evropada XVIII asrda turizm yangi ko'rinish oldi va sayyohlar tanishuv, davolanish va dam olish maqsadida hamda savdo-sotiq ahamiyatidagi sayohatlar tez o'sdi» -deb aytadi (Erdavletov, 2000, s.81-84).

XVII-XVIII asrda maktab o'quvchilarining Yevropa davlatlari bo'ylab piyoda sayohati tarixga «Buyuk turistik sayohat» bo'lib kirdi. Ular Londondan boshlab Ispaniya, Frantsiya, Italiya va Gretsiya davlatlarida bo'lishib, sayohat davomida xar bir davlatning hayoti, turmush tarzi, urf odati, madaniyati va san'ati bilan tanishdilar. Birinchi bo'lib ommaviy turistik sayohat Angliyada 1841 yili Tomas Kuk uyushtirgan turistik marshrut bo'ldi. U 600 kishilik sayyohni temir yo'l transportida Leysterdan Lafboroga sayohat tashkil qildi. Kuk 1845 yil Liverpulga, 1865 yil SHveytsariyaga sayohat uyushtirdi va 1882 yil dunyoda birinchi bo'lib jahon bo'ylab turistik sayohat qildi. Tomas Kuk o'z sayohat marshrutida temir yo'l, kema, mehmonxona va boshqa ob'ektlar bilan shartnoma asosida sayohatni tashkil etdi (Erdavletov, 2000, s.85).

XIX asrning ikkinchi yarmidan keyin G'arbiy Yevropa va Amerika davlatlarida turizm alohida boshqaruv va uyushtirilgan turistik guruhlar asosida rivojlana boshladi. Birinchi jahon urushigacha chet el turizmida aksariyat yuqori tabaqali boy aholi qatnashdi. Bu davrda turistik sayohatlar asosan dengiz va dengiz bo'ylari qirg'oqlari hamda dam olish uylariga uyushtirildi. Bunda asosan Frantsiya, Italiya, SHveytsariya va boshqa davlatlarda turistik faoliyat rivojlandi.

Birinchi va Ikkinchi jahon urushi yillari oralig'ida turistik sayohatlar o'ziga xos yangi mazmun kasb etdi. Endilikda turistlar tomosha va dam olish bilan birgalikda tanishuv maqsadlari, qadimiy yodgorliklar, arxitektura, san'at, madaniy yodgorliklarni o'rganishni ham o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydilar.

Biroq, Ikkinchi jahon urushi yillarida dunyo miqyosda xalqaro turizmning o'sish sur'ati nihoyatda pasayib ketdi. Birinchi jahon urushi davrida yiliga xalqaro turizmga 18-19 mln. kishi mashg'ul bo'lgan bo'lsa, 1947 yilda ushbu faoliyatda 16,6 mln, 1949 yilda esa 20 mln. kishi qatnashdi. G'arbiy Yevropada XX asrning ikkinchi yarmidan keyin «ichki Yevropa xarakteri»ga xos turizm rivojlandi (Zachinyaev, Fal'kovich, 1972).

Turistik sayohatlar Skandinaviya, Avstriya, GFR, Ispaniya, Italiya, Frantsiya va boshqa qo'shni davlatlar o'rtasida keng miqyosda uyushtirildi. Amerika qit'asida ham AQSH, Kanada, Meksika, Panama kabi davlatlarda u tez o'sdi. Amerika sayyohlarining Yevropaga va, aksincha, Yevropa sayyohlarining Amerika va boshqa qit'a mamlakatlariga sayohati kengaydi.

XX asrning ikkinchi yarmidan keyin sobiq Ittifoqda ham turizmga e'tibor qaratildi. Ushbu turistik sayohatlarni asosan sobiq sotsialistik davlatlarga uyushtirishni ko'zda tutdi. Bu xukumat 1969 yil 26 iyun ittifoqdosh respublikalarda turizmni rivojlantirish to'g'risida farmon chiqardi. SHundan keyingi yillar davomida Hamdo'stlik davlatlarida turizm shakllana boshladi. Biroq, ta'kidlash joizki, uzoq mustabit tizim davrida qadimdan shakllanib kelgan sayyohlikning o'ziga xos xususiyatlari ancha yo'qolib ketgan edi. Binobarin, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi natijasida tashkil topgan mustaqil davlatlarda turizmning yangi yo'nalishlari vujudga kela boshladi. Afsus bilan aytish lozimki, 70 yillik qatog'onlik deb atalmish sovetlar davrida jahon turizmining nihoyatda rivojlanishi, xo'jalikning muhim tarmog'i sifatida shakllanishi asosan G'arbiy Yevropa, Amerika va SHarqiy Osiyo davlatlarida ko'zga tashlandi, bizda esa, aksincha, u unchalik taraqqiy etmadi.

Halqaro turizm iqtisodiyoti. Davlatlar o'rtasida sayyohlar ayriboshlash halqaro aloqalarning bir turi bo'lib, u turistik tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi. Xalqaro turizm jahon xalqlarini bir-birini o'rganishga, xalqlar o'rtasida do'stona aloqani, savdo-sotiqni, madaniyat va ilm-fanni yusaltirishga xizmat qiladi.

6-jadval

Jahonda birinchi o'nlikda turadigan davlatlarga keladigan sayyohlar soni (2009 yil holati)

T/r	Mamlakatlar	Sayyohlar mln.kishi	soni.	Umumiy jahondagi ulushi % hisobida
	Jaxon bo'yicha jami: SHu jumladan;	697,6		100,0
1	Frantsiya	75,5		10,8
2	AQSH	50,9		7,3
3	Ispaniya	48,2		6,9
4	Italiya	41,2		5,9
5	Xitoy	31,2		4,5
6	Buyuk Britaniya	25,3		3,6
7	Rossiya	21,2		3,0
8	Meksika	20,6		3,0
9	Kanada	20,4		2,9
10	Germaniya	19,0		2,7

Halqaro turistik faoliyat - mintaq va regionlar yoki davlatlar bo'yicha migratsion xarakat hisoblanadi. Sayohat paytida sayyohlar mehnat (mahsulot ishlab chiqarish, moddiy daromad olish) bilan band bo'lmasdan, balki qabul qiladigan davlatga valyuta to'lashadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dunyo miqyosida turizmning geografik taqsimoti bir xil emas. SHu bois, mintaq yoki davlatlar turistik salohiyatlari va ulardan foydalanish xususiyatlariga ko'ra bir biridan farq qiladi. 6-chizmadan ko'rish mumkinki, Yevropa 57,7 foizni, Amerika qit'asi 18,5 Osiyo va Tinch okeani mintaqasi 16,0 foizni tashkil etgan. Jahon miqyosida Yevropa va Amerika mintaqasida xalqaro turizm salmog'i yuqori, ammo rivojlanish sur'ati esa SHarqiy Osiyo, xususan Tinch okeani sohillari davlatlarida jadal kechmoqda.

Turizm jahon iqtisodiyotining asosiy tarmog'i sifatida sohalar ichida yillik foyda ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarning biriga chiqib oldi. Jahon mamlakatlari ichidagi birinchi o'nlikda turadigan davlatlarda turizmdan keladigan foyda ko'rsatkichlarini hamda keladigan sayyohlar sonini taqqoslash asosida xalqaro turizmning mintaqaviy o'rnini aniqlash mumkin (6-7 jadval).

Yuqoridagi jadvallardan ma'lum bo'ladiki, xalqaro turizmdan eng yuqori daromad bo'yicha AQSH (85,2 mlrd. dol. – 17,8 foiz), sayyohlar soni jihatidan esa Frantsiya (75,5 mln kishi –10,8 foiz) ajralib turadi. SHuningdek, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha AQSH, Ispaniya, Italiya, Buyuk Britaniya mamlakatlari ham ancha yuqori mavqega ega.

Xalqaro turizmning jahon miqyosida yil sayin o'sib, foyda ko'rsatkichlari oshib bormoqda. SHu bois, olimlar va mutaxassislar XXI asrni turizm asri bo'lishini bashorat qilmoqdalar.

7-jadval

Jahon mamlakatlari ichidagi birinchi o'nlikda turadigan davlatlarda turizmdan keladigan foyda (2009 yil, mlrd. AQSH dollari hisobida)

t/r	Mamlakatlar nomi	Sayyohlikdan keladigan foyda	Umumiy jahondagi ulushi (%)
	Jaxon bo'yicha jami:	423.1	100
1	AQSH	85,2	17,8
2	Ispaniya	31,0	6,5
3	Frantsiya	29,9	6,3
4	Italiya	27,4	5,7
5	Buyuk Britaniya	19,5	4,1
6	Germaniya	17,8	3,7
7	Xitoy	16,2	3,4
8	Avstriya	11,4	2,4
9	Kanada	10,0	2,0
10	Germaniya	9,3	1,9

Jadvalar: Butunjahon turistik tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzildi.

Turizm XX asrning oxiriga kelib murakkab tarmoqqa aylandi. CHunki, u xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari, jumladan, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, mexmonxona xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, sport va boshqa ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liqdir (Lipets va boshqalar, 1999). 1970 yildan 1991 yilgacha o'tgan davr mobaynida jahondagi sayyohlar soni 160 mln. dan 525 mln. kishiga oshdi. 2008 yili sayohatga chiqqan turistlar soni 698 mln. kishidan oshdi, ya'ni shu yili dunyo aholisining 1/4 qismi turizmga band bo'lgan (Aleksandrova, 2008).

Keyingi yillarda dunyo bo'yicha turizm tarmog'ida band bo'lgan aholining soni yildan-yilga oshib bormoqda. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, 2015 yilgacha bo'lgan davrda butun jahonda 930 mln. kishini, ya'ni yer yuzi aholisining 16 foizini turizmga jalb etish mumkin. 2009 yilda dunyoda mehnatga yaroqli aholidan 7 kishidan biri turizm sohasida ishlagan bo'lsa, ayrim davlatlarda 20 kishidan 15 tasini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich Yevropada 300 mln., SHimoliy va Markaziy Amerikada 98 mln., Osiyoda 95 mln. kishini tashkil etgan. Demak, aholi va uning turizm sohasidagi bandligi turli mamlakatlarda turlicha. Bu avvalo shu davlatning iqtisodiy geografik o'rni va tarixiy rivojlanishi hamda tabiiy sharoitning qay darajaligi bilan bog'liqdir.

Binobarin, turizm sohasidagi qo'shimcha xizmat turlarining paydo bo'lishi mehnat resurslarning bandlik darajasiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Sayyohlikning o'sishi, unga bo'lgan intilish bir tomondan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligini, transport vositalarining mukammallashganligi ko'rsatsa-da, ikkinchi tomondan, urbanizatsiya darajasining o'sganligi, kishilar turmush sharoiti, madaniy hayoti va

moddiy farovonligining oshganligi, kishilarning boshqa hudud va mamlakatlar xalqlarini bilishga qiziqishini kuchaytirdi. SHuningdek, tabiiy, madaniy, ma'naviy, tarixiy yodgorliklar bilan tanishishga, ziyorat qilishga, tabiat go'zalligidan barhamand bo'lishga intilishini oshirdi.

So'nggi yillarda AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlari xalqaro turizmga yetakchi o'ringa chiqib oldi. Ayni vaqtda rivojlanilayotgan mamlakatlarda ham bu sohaga e'tibor kuchaymoqda. Ayrim davlatda turizm hisobiga milliy daromadning 40-50 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda. Bunday mamlakatlar jumlasiga Marokash, Tunis, Keniya, Kipr, Barbados, Bagama, Bermud, Seyshall' orollarini ko'rsatish mumkin.

Ta'kidlash joizki, har bir mamlakatning turistik salohiyati uning maydoni, hududining tabiiy geografik, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy turli tumanligi hamda turistik bozor va infratuzilmaning rivojlanganligiga bog'liq. Bunday omil va sharoitlarning dunyo bo'yicha farq qilishi xalqaro turizmning eng muhim ko'rsatkichidir. 7-jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, so'nggi yarim asr davomida davlatlarning xalqaro turizmga tutgan o'rni o'zgarib borgan. Masalan, 1950 yilda jahon bo'yicha sayyohlarning soni 25 mln. kishidan ortiq bo'lgan. Bu borada AQSH, Kanada, Italiya, Frantsiya va SHveytsariya mamlakatlari oldinda turgan. 1970 yilga kelib «birinchi beshlikda» Italiya oldinga chiqib olgan, AQSH esa 5- o'ringa tushib qolgan. Oraliq o'rinlarni Kanada, Frantsiya va Ispaniya davlatlari egallagan. Ayni vaqtda Norvegiya, Argentina, Meksika, Niderlandiya, Daniya kabi mamlakatlar mavqei keskin pasaygan.

1990 yilda Frantsiya sayyohlarni qabul qilish bo'yicha dunyoda birinchi o'ringa chiqib olgan va hozir ham u ana shunday mavqeni saqlab qolmoqda. Xuddi shunday fikrni ikkinchi va uchinchi o'rinlarda turgan AQSH hamda Ispaniya uchun bildirish mumkin. 1970 yilda birinchi o'rindagi Italiya davlati 1990-2000 yillarda beshinchi o'ringa tushib qolgan.

SHu o'rinda Ispaniya to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tish mumkin. Bu mamlakatda o'tgan asrning 70-80 yillarida o'tkazilgan iqtisodiy islohatlar aynan turizmdan boshlangan. Ispaniya 2000 yilda 54 mln. sayyohlarni qabul qilgan va bundan kelgan daromad 12 mlrd. AQSH dollarini tashkil etgan (Dergachev, 2002, b. 100)

Umuman olganda, so'nggi o'n yilda ayrim mamlakatlarda (Venetsiya, Avstriya, Gretsiya va h.k.) xalqaro turizm sust rivojlangan, boshqa ba'zi bir davlatlarda esa u tezkor taraqqiy qilgan (masalan, Xitoy, Rossiya, Meksika).

Xalqaro turizm erkin iqtisodiy mintaqalarni tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega. CHunonchi, dunyo bo'yicha bunday mintaqa dastavval Irlandiyada o'tgan asrning 60-yillarida vujudga kelgan (SHennon) va uning bosh omili turizm bo'lgan. Hozirgi davrda qator erkin iqtisodiy mintaqalar faoliyatida turizm ancha salmoqli o'rinda turadi. Masalan, birgina Syangan (av.Gongkong) erkin iqtisodiy mintaqasi yiliga 7 mln. sayyohni qabul qilib, o'rtacha 7 mlrd. AQSH dollari miqdorida daromad oladi (Dergachev, 2002, b.288). Bu ko'rsatkich xatto mashhur Rim shahridan ham yuqori (u o'rtacha bir yilda 3 mln. sayyoh qabul qiladi).

SHunday qilib, hozirgi vaqtda eng mashhur turistik mamlakatlarga Frantsiya, Ispaniya, AQSH, Italiya, SHveytsariya, Buyuk Britaniya, Gretsiya, CHexiya, Slovaniya, Turkiya kabilar kiradi. Andorra, San Marino, Manokoga o'xshash «mitti» davlatlarda turistlarga xizmat ko'rsatish anchadan beri asosiy daromad manbai hisoblanadi. Bu mamlakatlarda har bir mahalliy aholiga 100 dan ortiq turist to'g'ri keladi.

Xorijiy Yevropa dengiz buyi turizmining asosiy rayoni O'rta yer dengizi bo'yi bo'lib, unga yiliga 100 mln. dan 150 mln.gacha turist kelib ketadi. Bu borada ayniqsa Laguriya dengiz sohillari mashhurdir. Bu yerda shimoldan Al'p tog'lari to'sib turuvchi Riv'era markazi Pitstsa, Xorvatiyadagi Adriatika sohillari, Ispaniya sohillari, Bamar orollari joylashgan.

Tog' turizmning asosiy rayoni Al'p tog'idir. Tog'ning quyi mintaqasi tog'-changi sportida, yuqori mintaqasi esa al'pinizmda foydalanadi. Yevropaning Parij, Rim, Madrid shaharlari turistlarning o'ziga xos «Makka» si hisoblanadi. SHuningdek, London, Amsterdam, Vena, Bern, Drezden, Praga, Budapesht, Venetsiya, Neapol', Syangan (Gongkong) kabi shaharlarida ham turistlar oqimi ko'pchilikni tashkil qiladi.

So'nggi yillarda Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari (Tailand, Birma, Singapur, Malayziya, Indoneziya) hamda Avstraliyada turizmning rivoji yil sayin oshib bormoqda. Xususan Avstraliya yashil materik sifatida sayyohlikning o'ziga xos tarmoqlarini rivojlantirmoqda. SHu bilan birgalikda Markaziy Osiyodagi davlatlar ham o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin jahon tajribasi asosida turizmni rivojlantirish uchun harakat qilmoqda.

1.4. Turistik korxonalarda aholi bandligining nazariy asoslari

Turistik korxonlarda aholini ish bilan ta'minlash uning takror ishlab chiqarilishi uchun zarur shartdir. CHunki kishilarning turmush darajasi, jamiyatning kadrlar tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishga joylashtirish, ishsizlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun sarf qiladigan chiqimlari aholining ish bilan ta'minlanishiga bog'liq. Ish bilan bandlik inson ijtimoiy kamolotining eng muhim tomonlaridan birini ochib beradiki, bu uning mehnat sohasidagi va mehnat bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga aloqadordir.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonunini 2-moddasida qayd etilganidek: «Ish bilan ta'minlash – fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan, o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, ularga ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir».

Quyidagilar ish bilan ta'minlangan deb hisoblanadi:

- yollanib ishlayotgan, shu jumladan,, ishni to'liqsiz ish vaqtida haq evaziga bajarayotgan, shuningdek, haq to'lanadigan boshqa ishga, shu jumladan, vaqtinchalik ishga ega bo'lgan fuqarolar;
- betobligi, mehnat ta'tilida, kasbga qayta tayyorlashda, malaka oshirishda ekanligi, ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yganligi munosabati bilan, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha ish joyi saqlanib turadigan boshqa hollarda vaqtincha ish joyida bo'lmagan fuqarolar;
- o'zini ish bilan mustaqil ta'minlayotgan fuqarolar, shu jumladan,, yuridik shaxs tashkil qilmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar, kooperativlarning a'zolari, fermerlar va ularning ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;
- qurolli kuchlarda, Milliy xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari va qo'shinlarida xizmatni o'tayotgan, shuningdek, muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar;
- ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda ajralgan holda ta'lim olayotgan fuqarolar;
- qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat olib borayotgan jamoat birlashmalari va diniy muassasalarda ishlayotgan fuqarolar.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi «Mehnat kodeksi»ga muvofiq quyidagi sabablarga ko'ra vaqtinchalik ish joyida bo'lmagan fuqarolarning ish joyi saqlanib qoladi va ular ish bilan ta'minlangan, deb hisoblanadilar:

1. Davlat va jamoat vazifalarini bajarayotgan vaqtda;
2. Ish beruvchi va mehnat jamoasi manfaatlariga doir vazifalarni bajarganda;
3. Jamiyat manfaatlariga doir harakatlar qilganda;
4. O'zini ish bilan mustaqil ta'minlaydigan fuqarolar toifasiga quyidagilar kiradi:
5. Tadbirkorlar;
6. Fermerlar va ularning ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan oila a'zolari;
7. Dexqon xo'jaligining ishlab chiqarishda qatnashayotgan oila a'zolari;
8. Kooperativlarning a'zolari;

9. Yozuvchilar, rassomlar va boshqalar.

Iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan aholi uchun, shu jumladan, ishsizlar uchun ish bilan ta'minlash maqomini belgilab olish muhimdir. Odatda besh maqom bor.

1. Yollanma xodimlar - bular korxona rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to'g'risida tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og'zaki bitim bo'yicha ishlaydigan shaxslar bo'lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish haqini oladilar.

2. Yakka tartib asosida ishlaydiganlar - mustaqil ravishda faoliyat olib boradigan, o'zlariga daromad keltirayotgan ish bilan shug'ullanadigan, faqat qisqa muddatga yollanma xodimlardan foydalanadigan yoki foydalanmaydigan shaxslar.

3. Ish beruvchilar - o'zining hissadorlik jamiyatini, xo'jalik shirkatini va hokazoni boshqaradigan yoki buning uchun davlat tomonidan vakil qilingan shaxslar. Ish beruvchi o'z funktsiyalarini yollanma boshqaruvchiga to'liq yoki qisman topshirib qo'yishi, korxonaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun javobgarlikni o'zida olib qolishi mumkin.

4. Oilaviy korxonalarning haq to'lanmaydigan xodimlari - qarindoshiga tegishli bo'lgan oilaviy korxonada haq olmasdan ishlaydigan xodimlardir.

5. Ish bilan ta'minlash maqomi bo'yicha tasniflashga to'g'ri kelmaydigan shaxslar - ilgari o'zlariga daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan kishilar. Ularga ish bilan ta'minlashning biron-bir maqomiga mos kelmaydigan shaxslar ham kiritiladi.

Aholini hisobga olishning amaliy ehtiyoji ish bilan ta'minlashning turlarini ajratib ko'rsatish zarurligini nazarda tutadi. Masalan, to'liq, oqilona va erkin tanlangan ish bilan ta'minlash bo'ladi.

To'liq ish bilan ta'minlash - bu kasbga oid mehnat bilan ta'minlanish bo'lib, u shaxsga daromad keltiradi va o'zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi.

Aholining ish bilan oqilona ta'minlanishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor muvozanatiga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi.

Erkin tanlangan ish bilan ta'minlash shuni nazarda tutadiki, bunda o'zining mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatiga (ish kuchiga) egalik qilish huquqi faqat uning egasiga, ya'ni xodimning o'ziga tegishli. Mazkur tamoyil har bir xodimning ish tanlashida to'g'ri yo'l tutishini, har qanday ma'muriy tarzda ishga jalb qilishni taqiqlashni kafolatlaydi.

Ish bilan ta'minlashning yuqorida keltirib o'tilgan turlari aholining ishga bo'lgan ehtiyoji bilan ish o'rinlari o'rtasidagi muvozanatni miqdor va sifat jihatidan ta'minlash holatini aks ettiradi, bunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bozor munosabatlariga o'tish davri sharoitida mehnat samaradorligi ortib borishiga qarab, kasbiy mehnat bilan ta'minlanish darajasi umuman mamlakat bo'yicha qisqarib boradi. Bunga sabab shuki, yuqori samarali iqtisodiyot nisbatan kamroq miqdordagi xodimlarga muhtoj bo'ladi, shuningdek, aholida ijtimoiy foydali mehnatning boshqa turlariga qiziqish ortishi bilan uning ish o'rinlariga bo'lgan ehtiyoji ham kamayib boradi.

Ish bilan ta'minlash munosabatlarini iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jarayonlar taqozo qiladi. Uning *iqtisodiy mazmunini* xodim uchun o'z mehnati bilan o'ziga munosib tarzda yashashni ta'minlash, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining o'sishiga yordam berish imkoniyatida o'z ifodasini topadi. *Ijtimoiy mazmun* shaxsning tarkib topishi va rivojlanishida ifodalanadi. *Demografik mazmun* ish bilan ta'minlash aholining yosh va jinsiy xususiyatlari, uning tarkibi va boshqalar bilan bog'liqligini aks ettiradi.

Aholini ish bilan ta'minlashning barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa mazmunlari quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; qishloq xo'jaligi bo'lmagan ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish; mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; qishloq aholisining mehnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

Davlat bandlik siyosati doirasida mehnat bozorini tartibga solishda bandlik jamg'armalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bandlik jamg'armasi xarajatlarini shartli ravishda to'rtta yo'nalish bo'yicha qismlarga ajratish mumkin:

1. Ishsizlik bo'yicha nafaqaga sarflanadigan mablag'lar, ishsizlarga moddiy yordam ko'rsatish, uzoq muddatli pensiyalar to'lash. Bularni passiv siyosat deb atash qabul qilingan.
2. Qayta tayyorlash va jamoat ishlariga sarflanadigan mablag'lar. Faol siyosatning mazkur shakli amaldagi qonunchilikdan kelib chiqadi, ya'ni bandlik sohadagi davlat xizmati uchun majburiy hisoblanadi.
3. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqa xarajatlarga mo'ljallangan mablag'lar. Aytib o'tilgan bu shakllarni birlashtirib turadigan tomon shuki, ular qonun bilan kafolatlanmagan. SHu bilan birga "moliyaviy qo'llab-quvvatlash" moddasiga doir xarajatlarni mehnat bozoridagi faol siyosat shakllariga kiritish qabul qilingan.
4. Bandlik xizmatlarini rivojlantirish uchun mo'ljallangan mablag'lar (ularni ta'minlash, kapital mablag'lar, reklama, "Bandlik" axborot xizmati).

Ishsizlarga uzoq muddatli pensiyalar tayinlanishi munosabati bilan Pensiya jamg'armasi xarajatlari bandlik jamg'armasidan qoplanadi. Aholining Bandlik jamg'armasiga badallar to'lashi uchun sug'urta tarifi mehnat haqiga to'lashga mo'ljallangan mablag'larning 1,5%ini tashkil etadi. Badallik uchun badallar to'lashdan nogironlarning jamoat tashkilotlari, nogironlar va pensionerlarning jamoat tashkilotlari, ularga tegishli bo'lgan korxonalar, shuningdek, diniy birlashmalar ozod qilinadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda mehnat bozorini boshqarishda bir qator yo'nalishlar mavjud bo'lib, ular aholi bandligi davlat xizmatiga taalluqlidir. Bu xizmatning asosiy vazifasi mehnat bozori haqidagi axborotni tarqatish hisobiga mehnat bozorining faoliyat ko'rsatish samaradorligini oshirishdan iborat.

O'zbekistonda aholi bandlik xizmati 1991 yilda tashkil etilgan edi. Respublika aholi bandlik xizmati ishining asosiy tamoyillari xalqaro amaliyotga muvofiq keladi. Hozirgi vaqtda O'zbekiston aholi bandligi xizmati mintaqalarda (viloyatlar, shahar va tumanlarda) ishlab turibdi.

Ishsizlik hozirgi vaqtda jamiyatning eng markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Zero, yuqori darajadagi ishsizlik birligidan, resurslardan to'liq foydalanilmayotganligini va aholi daromadlarining pastligini ko'rsatadi. Bu esa ijtimoiy sohada, oilaviy munosabatlarda vaziyatning keskinlashuvi va jamiyat miqyosida norozilikning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ish joyidan ayrilish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasi yomonlashishining, shaxsiy hayot notinchligini bildirib, odamga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishsizlik shunday hodisaki, unda ishchi kuchi iqtisodiy faol aholining bir qismi sifatida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda band bo'lmaydi. Ishsizlar bandlar bilan bir qatorda mamlakat ishchi kuchini tashkil qiladi.

Amaliyotdagi iqtisodiy hayotda ishsizlik ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi.

Iqtisod fani uchun ishsizlik muammosini o'rganishdan asosiy maqsad aholining ish bilan bandligini yaxshilash orqali mamlakat (korxonalar) ishlab chiqarilishini kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

II-BOB. NAMANGAN VILOYATI TURISTIK KORXONALARINI RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

2.1. Namangan viloyati iqtisodiy salohiyati va turizm industriyasini rivojlantirish uchun imkoniyatlari

Mazkur ishda ko'rilayotgan Namangan viloyati nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyo hududida takrorlanmas tabiiy manzaralariga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Viloyat Farg'ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan bo'lib, cho'zilgan to'rtburchak shaklini eslatadi; u g'arbdan sharqqa 130 km, shimoldan janubga esa 35 km.dan 80 km.gacha cho'zilgan. Hududi 7,9 ming kv. km., bu jihatdan u O'zbekistonning Farg'ona vodiysi viloyatlari o'rtasida oldingi o'rinda turadi. SHimol va shimoli-sharqdan Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyati, shimoli-g'arbda va g'arbda Toshkent viloyati va Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati, janubi-sharqda Farg'ona viloyatining Qo'qon guruhi rayonlari hamda Andijon viloyati bilan chegaralanadi. Viloyat chegaralarining muhim xususiyatlaridan biri ularning aksariyat tekisliklari orqali o'tishidir. Hatto qo'shni respublikalar, ya'ni Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari o'rtasidagi chegaralar ham qulaydir. Ularni bog'lab turadigan transport yo'llari shu sababli iqtisodiy jihatdan qadimdan yaxshi o'zlashtirilgan hududlar orqali o'tadi. Umuman olganda, viloyatning iqtisodiy-geografik va geosiyosiy o'rni uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga va bozorlarining rivojlanishiga qulaylik yaratadi. Tabiiy resurslar Namangan viloyatining iqtisodiy salohiyati uchun ijobiy baholanadi. Viloyat hududining geologik tuzilishi ancha murakkab bo'lib, unda turli davrlarda paydo bo'lgan xilma-xil qazilma boyliklardan iqtisodiyotda foydalanib kelinmoqda. Istiqbolli yo'nalishga ega bo'lgan neft havzalari adir va adir orti hududlarida-Tergachi, CHotqol hamda Mingbuloq cho'kmasida uchraydi. Bu konlarning nefti yengil, unda oltingugurt kam uchraydi. SHuningdek, oltin, uran va boshqa ko'plab qora, rangli va nodir metallar, qurilish materiallaridan marmar, granit, oxaktosh, gil, gips, tosh, qum ham bor. Namangan viloyati aynan shu jihatlari bilan ham qo'shni Farg'ona va Andijon viloyatlaridan farq qiladi. Bu xususiyat esa viloyatda qurilish materiallari ishlab chiqarish bozorining shakllanishiga sabab bo'lgan. Viloyat shifobaxsh issiq mineral suvlarga boy. Xususan, CHortoq, SHahand, Kosonsoy, Uchqo'rg'on suvlari o'zining minerallanish darajasi bo'yicha alohida ahamiyat kasb etadi.

Mintaqa hududini tashkil etgan tog' va adirlar muhim xo'jalik ahamiyatiga molikdir. Bu yerda 20 ga yaqin daryo va mavsumiy soylar bor. Mavjud suv resurslari qadimdan sug'orma dexqonchilikni rivojlantirish va aholi joylashuvining asosi bo'lib xizmat qilgan (Jumaxanov, 1998). Biroq, Namangan viloyati O'zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan suv bilan ta'minlanganlik darajasi ancha yuqori bo'lishiga qaramay Farg'ona vodiysining boshqa qismlariga qaraganda daryo va soylarining kamsuvligi bilan ajralib turadi.

Mintaqaning shimol va shimoli-sharqdagi tog'lar tabiiy namlik akkumulyatori sifatida viloyat tekislik qismini oqar suv bilan ta'minlab turadi. Tog'larga yogin tekislikka nisbatan bir necha marta ko'p tushadi, ulardagi qor va muzliklar yilning issiq mavsumlarida erib, pastki xududlarni suvga bo'lgan talabini qondiradi. Ayni vaqtda, Namangan viloyatining tekislik qismida joylashgan (Mingbuloq, Norin) hududlar suv bilan yaxshiroq ta'minlangan.

Norin, Qoradaryo bilan qo'shilib, Markaziy Osiyodagi eng uzun va sersuvligi jihatidani Amudaryodan keyinda turuvchi Sirdaryoni hosil qiladi. Sirdaryo suvining 77 foizini Norin va 23 foizini Qoradaryo beradi. Sirdaryodan Mingbuloq tumani xo'jaliklarini suv bilan ta'minlovchi Y.Oxunboboev nomli kanal, «Namangan» nasos va Pop tumani hududidagi nasos stantsiyalari suv oladi. SHuningdek, vodiydagi juda ko'p irrigatsiya inshootlari-kanallar aynan Namangan viloyati hududidan, aniqrog'i Uchqo'rg'on yaqinidan boshlanadi.

Namangan viloyatidagi Tyan-SHan' tog' tizimiga kiruvchi tog'lardan ko'plab daryo va soylar XX asrning 70 yillaridan boshlab Namangan viloyatining adir, adirorti tekisliklari va tog'

oldi hududlarini intensiv o'zlashtirishga xizmat qilgan. Bugungi kunda ularning aksariyati Sirdaryoga deyarli yetib bormaydi va tamomila sug'orishga sarflanadi. CHodaksoy, Rezaksoy, G'ovasoy, Kosonsoy, Namangansoy, Podshootasoy, CHortoqsoy Namangan hududidagi tog' daryo va soylaridir. Bundan bozorlarni tashkil etish uchun tegishli tabiiy-geografik imkoniyatlar mavjud. SHu jihatdan viloyat Toshkent va Jizzax viloyatlari kabi tabiiy resurslar salohiyatining nisbatan kattaligi bilan ajralib turadi.

Viloyatda iqtisodiyotni erkinlashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sishni, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, unda xususiy mulkning yetakchi o'rin egallashini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyatni va aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish kabi ustuvor yo'nalishlarga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Viloyat iqtisodiyoti 2010 yilda 2000 yilga nisbatan solishtirma narxlarda 37,1 %ga o'sdi. Bunda sanoat ishlab chiqarishi 2,1 martaga, qishloq xo'jaligi 33,7 %ga, tashqi savdo aylanmasi 41,6 %ga, eksport hajmi 30 %ga oshganligini ko'rish mumkin. Viloyatda ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish va mulkchilikni barcha shakllarini rivojlantirish uchun yetarli iqtisodiy sharoitlar yaratildi. Viloyatda 2011 yil ma'lumotlariga ko'ra iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ro'yhatga olingan yuridik maqomidagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni 31325tani, shulardan faoliyat ko'rsatayotganlari 28657 tani yoki 91,5 foizni tashkil qildi. Ro'yhatga olingan korxona va tashkilotlarning aksariyat qismi qishloq xo'jaligi (51,3 foiz), savdo va umumiy ovqatlanish (18,0 foiz), sanoat (7,4 foiz) va qurilish (4,6 foiz) sohalariga, tumanlar kesimida esa CHust tumani (10,4 foiz), CHortoq tumani (8,8 foiz), Yangiqo'rg'on tumani (10,2 foiz), Pop tumani (7,8 foiz) va Namangan shahri (19,3 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Jami ro'yhatga olingan korxonalar hajmida nodavlat mulki shaklidagi korxonalarining ulushi 90,2 foizni, shu jumladan fermer va dehqon xo'jaliklari 46,9 foizni, aktsiyadorlik jamiyatlari 0,3 foizni, xususiy korxonalar 25,3 foizni, chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar 0,2 foizni tashkil qildi. 2010 yilda viloyatda jami 2629 ta xo'jalik yurituvchi sub'ekt davlat ro'yxatidan o'tib, bularning 159 tasi yoki 6,0 foizi kichik biznes sub'ektiga mansub bo'lmagan korxonalar 2470 tasi yoki 94,0 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir.

SHu bilan bir qatorda, 2010 yilda jami 1126 ta xo'jalik yurituvchi sub'ekt davlat ro'yxatidan chiqarilgan bo'lib, ularning 70 tasi yoki 5,7 foizi kichik biznes sub'ektiga mansub bo'lmagan korxonalar, 1156 tasi yoki 94,3 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

8-jadval
Namangan viloyatida YaHM ishlab chiqarishning
tarmoqlar takibi

№	Mahsulot ishlab chiqarish	YaHM (mln.so'm)		O'tgan yilning shu davriga nisbatan	YaHM yaratishdagi ulishi (%)
		2009 yil	2010yil		
1.	Sanoat	126221,8	173841,7	119,0	7,4
2.	Qishloq ho'jaligi	635198,4	826990,1	106,5	37,0
3.	Qurilish	120775,8	171376,3	131,3	7,3
4.	Transport va aloqa xizmati	160970,1	196489,6	111,8	8,6
5.	Savdo va umumiy ovqatlanish	156352,8	200917,3	114,2	9,2
6.	Boshqa bozor va nobozor xizmatlar	562815,4	726765,0	115,2	24,2
7.	Mahsulot va eksport-import operatsiyalariga oid soliqlar	110163,6	130240,7	115,7	6,3

	Jami	1872497,8	2426620,8	112,4	100
--	-------------	------------------	------------------	--------------	------------

***Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari.**

Viloyat bo'yicha bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan hususiy korxonalar soni 6328 tani tashkil etib, ularning 99,7 foizi yoki 6309 tasi kichik biznes sub'ektlaridir. 2010 yilda jami 1272 ta hususiy korxona davlat ro'yxatidan o'tkazilib, 435 ta xususiy korxona tugatildi. Viloyatda qishloq xo'jaligi va transport sohalari to'raligicha nodavlat mulk shakliga o'tkazildi. Nodavlat tashkilotlari salmog'i iqtisodiyotning sanoat tarmog'ida 99,1 %ga, savdoda 99,8 %ga, pullik xizmatda 84,4 %ga va maishiy xizmat ko'rsatish sohasida 98,1 %ga yetdi. Viloyat bo'yicha yalpi hududiy ichki mahsulot ishlab chiqarish 2010 yilda amaldagi narxlarida 1425,9 mlrd.so'mni (2004 yilda 465,3 mlrd.so'm, 2005 yilda 612,7mlrd.so'm, 2010 yilda 242,7mlrd.so'm) tashkil etdi yoki 2009 yilga nisbatan 112,4 foizga o'sdi. 2000 yilga nisbatan aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish mos ravishda 4,9 martaga ko'paydi (8-jadval).

Yalpi ichki mahsulot tarkibida qishloq xo'jaligi, transport, savdo va umumiy ovqatlanish tarmoqlarini ulushi ortdi. Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 29 dekabrda 517-sonli «Vazirlar Mahkamasining umumiy iqtisodiyot kompleksi ishi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini bajarib, moliyaviy holatni barqarorlashtirish, to'lov intizomini hamda pul-kredit siyosatini mustahkamlash borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi:

- naqd pul tushumi ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi;
- tijorat banklari tomonidan loyihalarning samaradorligi va xarajatlarni qoplashdan kelib chiqqan holda kreditlar ajratilishi ustidan nazoratni kuchaytirildi;
- mahalliy byudjet taqchilligini inflyatsiyasiz qoplashga bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi;
- soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish va soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirildi. Viloyatda bozor infratuzilmalarini rivojlantirish uchun barcha sharoitlar yaratildi.

Viloyatdagi Markaziy bank va 13 ta tijorat banklari faoliyatini bank tizimini isloh qilish talablari asosida tashkil etildi. Ayniqsa 2006 yilda «Milliy valyutani halqaro joriy operatsiyalar bo'yicha konvertatsiyasini ta'minlash Harakat rejasi ijrosi»ga doir Respublika Idoralararo maxsus yig'ilishida belgilangan vazifalarni viloyatda bajarilishini tashkil etish yuzasidan iqtisodiyot va nazorat organlarining tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va shu dastur asosida ish tashkil etildi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida milliy valyutamizni halqaro operatsiyalarda konvertatsiyasi ta'minlandi. Erkin konvertatsiyaga o'tilishi viloyatga chet el investorlarini kirib kelishi uchun imkoniyat yaratib berdi. Natijada banklarga barcha manbaalardan pul tushumi ko'paydi. Aholiga iste'mol mollari yetkazib berish, pullik xizmat ko'rsatish tarmog'i yaxshilandi.

Viloyatda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining viloyat bosh boshqarmasi hamda 13 ta tijorat aksionerlik banklari jumladan, Respublika IAT «Paxtabanki» va Halq banklarining viloyat boshqarmalari, «Sanoatqurilish», «Milliy», «Impoteka», «Mikrokredit», «G'alla», «Savdogar», «Turon», «Ipak yo'li», «Aloqa», «Asaka» va «Xamkor» banklarining viloyat bo'limlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.«Paxta bank», «Xalq»banki, «G'alla bank», TIF Milliy bankining tumanlarda bo'limlari mavjud.

Viloyatimyatda hozirda to'rtta sug'urta kompaniyasi faoliyat ko'rsatmoqda. «O'zagrosug'urta» Davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi yuridik shaxs sifatida 1997 yilda tashkil qilinib, o'zining mustaqil balansi, hisob va valyuta raqamlariga ega. Kompaniya faoliyatining asosiy yo'nalishlari-qishloq xo'jaligi sohasida tovar ishlab chiqaruvchilarning mulk va mahsulotlarini sug'urta yo'li bilan himoya etish,banklardan olingan kreditlarni qaytarishga sug'urta kafolatlari taqdim etish,yuridik va jismoniy shaxslarga har tomonlama sug'urta xizmatini ko'rsatishdan iboratdir.

Namangan viloyatida 3 ta kredit uyushmasi mavjud bo'lib, bular «Barokot», «Tayanch», «FV-Mard» kredit uyushmalaridir. «Barokot» va «FV-Mard» kredit uyushmalari «Mercy Corps»ning Osiyo davlatlarida ayollarga mikromoliyaviy yordam berish dasturiga asosan tashkil etilgan. Bu ikki kredit uyushmasining faoliyat yo'nalishi deyarli bir xil, ya'ni, to'rt yo'nalishda kreditlar ajratadi. Bu yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ishlab chiqarish, savdo, agrobiznes (chorvachilik, dehqonchilik), xizmat ko'rsatish sohalari.

Sanoatda asosiy e'tibor importning o'rnini bosadigan yo'nalishga (mahalliy lashtirish yuzasidan qabul qilingan dasturga muvofiq mahalliy xom ashyodan foydalanish), shuningdek, eksportga mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. Yengil va oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash, mashinasozlik, kimyo va qurilish sanoatini rivojlantirish viloyatdagi asosiy ustuvor yo'nalishlardir.

Namangan viloyatida qishloq xo'jalik korxonalarining koperatsion aloqalarining rivojlanishida viloyatning investitsion jozibador hududlarida qo'shma korxonlarni tashkil etilganligi ham muhim ahamiyatga ega. Hozirgi paytda viloyatda chet ellik investorlar ishtirokidagi 54 ta qo'shma korxona mavjud bo'lib, shundan 42 tasi sanoat, 5 tasi savdo, 2 tasi qishloq xo'jaligi, 2 tasi qurilish va 3 tasi boshqa sohalarda ishlab turibdi. Shundan, 20 ta qo'shma korxona-rossiyalik, 17 ta qo'shma korxona-turkiyalik va 5 ta qo'shma korxona amerikalik investorlar ishtirokida ishlayotqda. Natijada 5,5 mingga yaqin qo'shimcha ish o'rinlari tashkil qilinib, shundan 70 foizi qishloq joylarida ekanligi diqqatga sazavordir (9-jadval).

9-jadval

Namangan viloyati qo'shma korxonalarining hududiy tarkibii (2010 yil)

	Jami ro'yhatga olinganlari	jumladan, faoliyat ko'rsatayotganlari	Faoliyat ko'rsatayotganlari jamiga nisbatan, foiz hisobida
Viloyat bo'yicha:	54	47	87,0
Tumanlar:			
Namangan sh.	26	23	88,5
Mingbuloq	1	1	100,0
Kosonsoy	3	2	66,7
Namangan	5	5	100,0
Norin	1	1	100,0
Pop	3	2	66,7
To'raqo'rg'on	2	1	50,0
Uychi	5	4	80,0
Uchqo'rg'on	-	-	-
CHortoq	2	2	100,0
CHust	5	5	100,0
Yangiqo'rg'on	1	1	100,0

***Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari.**

2010 yil yakuni bilan viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar tomonidan 155852,9 mln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan (87535,3 mln.so'm) 178,0 foizni tashkil etdi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi eksportga yo'naltirilishi belgilangan. Jumladan, hisob-kitoblarga ko'ra qo'shma korxonalar tomonidan 2010 yilda jami ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar eksporti 50,5 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa,

joriy yilda ushbu ko'rsatkich yangi eksportyor korxonalar «Xain teks» XK (4289,0 ming doll), «Namangan sharbati» QK (1860,3 ming doll), «MRT tekstil» (4283,9 ming doll.) kabi korxonalar qo'shilishi hisobiga 90,0 mln. AQSH dollarini yoki o'sish sur'ati 104,4 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

2010 yil mobaynida viloyatda 5 ta xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etildi. Jumladan, Namangan shahrida mebel hom-ashyosi ishlab chiqaruvchi «Prima-mebel», qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi «Afruz Kamol Nabi», sharbat ishlab chiqaruvchi «Namangan sharbati», Asakadagi avtomobil zavodida ishlab chiqarilayotgan avtomobillar uchun fonar chiroqlar ishlab chiqaruvchi «Uzchassiz» qo'shma korxonalari hamda Kosonsoy tumanida tabiiy va sun'iy charm ishlab chiqaruvchi «Treydvell interneysnl» xorijiy korxonalari tashkil etildi.

SHuningdek, qurilish tizimini hududiy tashkil etishda tashqi iqtisodiy savdo jarayonining rivojlantirishi muhim omil ekanligi hammaga ma'lum. CHunki, tashqi savdo mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini ko'rsatib beruvchi, uning jahon iqtisodiy hamjamiyatidagi o'rnini belgilab beruvchi makroiqtisodiy «barometr»dir. Tashqi savdo balansining buzilishi mamlakatda eksportni importga nisbatan pastroq o'sayotganligidan dalolat beradi.

Namangan viloyatida so'nggi yillarda, respublika tashqi iqtisodiy faoliyatining muhim sub'ekti sifatida, tashqi savdo aylanmasi eksport va import ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'sishga erishildi. 2010 yilda viloyat bo'yicha umumiy tashqi savdo aylanmasi jismoniy shaxslarni qo'shgan holda 474369,9 ming AQSH dollarini tashkil etib, shundan eksport 330236,3 ming AQSH dollarini, import esa 144133,6 ming AQSH dollarini tashkil etdi (10-jadval).

Hamdo'stlik davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 319299,4 ming AQSH dollarini tashkil qildi. SHundan eksport 238466,5 ming AQSH dollariga, import 81040,9 ming AQSH dollariga yetdi. Uzoq xorij davlatlari bilan savdo aylanmasi esa 155070,5 ming AQSH dollarini tashkil etib, 2009 yilga nisbatan 104,1 foizni shundan eksport 91961,6 ming AQSH dollarini yoki 80,2 foizni, import hajmi esa 63108,9 ming AQSH dollarini yoki 153,9 foizni tashkil etdi.

10-jadval

**Namangan viloyati shahar va tumanlarida tashqi savdo aylanmasi
tarkibi(ming AQSH dollari hisobida)**

	Tashqi savdo aylanmasi	jumladan	
		eksport	import
Viloyat bo'yicha:	474369,9	330236,3	144133,6
Tumanlar:			
Namangan sh.	99250,5	33578,0	65672,5
Mingbuloq	3771,6	3707,8	63,8
Kosonsoy	6140,7	5411,4	729,3
Namangan	24448,3	18086,5	6361,8
Norin	3972,4	3735,7	236,7
Pop	14426,8	12931,2	1495,6
To'raqo'rg'on	6862,0	3149,0	3713,0
Uychi	8255,3	6620,6	1634,7
Uchqo'rg'on	5850,3	4288,7	1561,6
CHortoq	2316,0	1048,4	1267,6
CHust	271593,8	221704,8	49889,0
Yangiqo'rg'on	19253,6	14087,9	5165,7

***Manba: Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi va statistika boshqarmasi ma'lumotlari.**

SHuningdek, tashqi savdoning geografik tuzilmasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi va uning kengayib borish alomatlari kuzatildi. Xolbuki, 1991 yilda u amalda faqat MDH mamlakatlari tomonidan yo'naltirilgan bo'lsa, 2010 yil yakuniy natijalariga qaraganda viloyat tashqi savdosida uzoq xorijiy mamlakatlarning ulushi 69,3 foizni tashkil etdi, Namangan viloyati tashqi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari sifatida AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan. Bundan tashqari, MDH mamlakatlari bilan tashqi savdoda ham ancha ijobiy natijalarga erishilmoqda. Viloyat tashqi savdosida MDH mamlakatlarining ulushi 30,7 foizni tashkil etdi. Fikrimizcha, mintaqaviy barqarorlik, mintaqada darajasida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini hal etishda MDH davlatlari bilan ustuvor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, erkin savdo zonalarini tashkil etish va MDH mamlakatlariga, qolaversa, uzoq xorij mamlakatlariga o'zbek tovarlarini eksport qilish uchun tranzit bozorlardan biri sifatida qarash lozimdir. Hozirgi paytda, viloyat eksporti dunyoning 50 dan ortiq mamlakatlari tomon qaratilgan bo'lib, uning tarkibini iqtisodiy tahlil etish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda an'anaviy xom ashyo tovarlari bilan bir qatorda, turli ko'rinishdagi oziq-ovqat mahsulotlari, xizmatlar, shuningdek, boshqa tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda, ya'ni eksport tarkibida qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ulushi salmoqli darajada o'sgan. Bugungi kunda Namangan viloyati uchun ham eng avvalo, tashqi savdoni tariflar orqali tartibga solish iqtisodiy faoliyat yuqori samaradorligiga erishishning ta'sirchan usuli bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2010 yil ma'lumotlariga ko'ra Namangan viloyatining respublika sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,5 foizga teng. Bu jihatdan u mamlakatda o'rtacha ko'rsatkichga ega. Viloyatda 38 ta yirik sanoat korxonalari mavjud bo'lib, hisobot davrida ularning 35 tasi faoliyat ko'rsatdi. SHular qatorida, 637 ta kichik korxona va mikrofirmalar, 37 ta yordamchi sanoat korxonalari hamda 3275 ta yakka tartibdagi tadbirkorlar sanoat mahsuloti ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullandilar.

Ular tomonidan 748671,4 mln.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,7 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot ulushi 64,1 foizni tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha esa 98,7 foiz maxsulot nodavlat sektor hissasiga to'g'ri keladi. Bundan mos ravishda 60 foizi aksionerlik jamiyatlari, 14,6 foizi xususiy mulk sub'ektlari, 20 foizi qo'shma korxonalar, 2,5 foizi esa ma'suliyati cheklangan jamiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Davlat tasarrufidagi korxonalar esa atigi 1,3 foiz mahsulot ulushiga ega.

Mulkchilik shakllari jihatidan 98,7 foiz mahsulot nodavlat sektor hissasiga to'g'ri keladi. Uning 60 foizi aksionerlik jamiyatlari hissasiga, 14,6 foizi xususiy mulk sub'ektlari, 20 foizi qo'shma korxonalari va 2,5 foizi mos ravaishda ma'suliyati cheklangan jamiyatlarga to'g'ri keladi. Davlat tasarrufidagi korxonalar esa 1,3 % mahsulot ulushiga ega.

Tarmoqlar bo'yicha yengil sanoat ulishi 58,3 foiz, oziq-ovqat sanoati 18,9 foiz, qurilish materiallari ishlab chiqarish 6,6 foiz, mashinasozlik va metalni qayta ishlash 3,0 foiz, kimyo va neftni qayta ishlash 1,6 yog'ochni qayta ishlash 1,3 foizni tashkil etadi.

Ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki sanoat ishlab chiqarishda yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining hissasi yuqori darajada. Buning asosiy sababi SHimoliy Farg'ona adirlar mintaqasida mazkur tarmoqlarni rivojlantirish uchun yetarli xom-ashyoning mavjudligi va sanoat korxonalarining tarmoq ixtisoslashuvidir. Yoqilg'i, kimyo, yog'ochni qayta ishlash va poligrafiya sanoati tarmoqlarining mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushlari sezilarli darajada past. Zero, ushbu sanoat tarmoqlarining hududiy joylanishi va rivojlantirish omillari mintaqada yetarli darajada emas.

Bugungi kunda mintaqada 60 turdan ortiq sanoat mollari ishlab chiqarilib, ishlab chiqarish hajmi shahar va tumanlar bo'yicha hududiy farqlarga ega. CHunonchi, Namangan shahri, Pop, Uchqo'rg'on, Uychi, Namangan tumanlari o'zlarining sanoat mollari ishlab

chiqarishiga ko'ra alohida salohiyatga ega. Mazkur xududiy tuzilmalar viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 76,3 foizini beradi, shu jumladan Namangan shahri 41,8 foiz, Pop tumani 15,1 foiz, Uchqo'rg'on tumani 9,1 foiz, Uychi tumani 5,1 foiz, Namangan tumani 5,2 foiz hissaga ega. SHuningdek, Mingbuloq, To'raqo'rg'on, CHortoq, CHust, tumanlarining sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi viloyatni respublika sanoatidagi salmog'iga deyarli teng.

Viloyat sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarishda Namangan shahri sanoati ishlab chiqarish hajmiga ko'ra alohida ajralib turadi. Bunga uning iqtisodiy geografik o'rni, qolaversa ishlab chiqarish korxonalarini hududiy tashkil etish uchun barcha omillarni mavjudligi va ishlab chiqarish korxonalarining yuqori darajada mujassamlashganligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHu bilan birga, Pop, Uchqo'rg'on, Namangan va Uychi tumanlarida bunday shart-sharoitlar majmui boshqa tumanlarga nisbatan yaxshiroq rivojlangan.

Bugungi kunda qulay agroiklimiy sharoit va omillar ta'sirida mintaq qishloq xo'jaligida o'ziga hos tarmoqlar va hududlar ishlab chiqarishi vujudga keldi. Viloyatda 282,7 ming gektar (2007 yil) sug'oriladigan yerlar bo'lib, shundan, ekin yerlari 196,2 ming ga ni, ko'p yillik daraxtzorlar 36,1 ming ga ni, bo'z yerlar 3,4 ming ga ni, 987 gektarni esa meliorativ qurilish holatidagi yerlar tashkil etadi. Yalpi mahsulot ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik korxonalarining ulushi 21,3 % ga teng.

Mintaqada asosan obikor dehqonchilik rivojlangan bo'lib, paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik va polizchilik tarmoqlari shakllangan. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi ekin maydonlari tarkibida g'alla maydonlarining kengaytirish xisobiga tarkibiy o'zgarishlar yuzaga keldi. Istiqloqlarning dastlabki yillarida mintaq 390 ming tonna paxta, 104 ming tonna don yetishtirilgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkich paxtachilikda 261,0 ming, donchilikda esa 460,3 ming tonnaga teng bo'ldi. Mazkur davrda paxta maydonlari 125,4 ming gektardan 107,3 ming gektarga qisqartirilib, donli ekinlar maydoni 23,1 mingdan 87,1 ming gektarga ko'paydi. Xuddi shuningdek qishloq xo'jaligini boshqa tarmoqlarida ham tub o'zgarishlar yuz berdi.

Ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatda sabzavotchilik maydoni va yetishtirilgan mahsulot hajmi ushbu davrlarda ortgan. Polizchilik maydonlari esa mustaqillik yillarida 63 % ga qisqartirilgan. Xuddi shuningdek chorvachilik sohasida ham sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ayni chog'da, viloyat qishloq xo'jaligida chorvachilik ikkinchi soha hisoblanib, qo'ychilik va echkichilik, qoramolchilik hamda parrandachilik asosiy tarmoqlar hisoblanadi. Biroq, mazkur tarmoqlar mahsulot ishlab chiqarishida aholi xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib, ixtisoslashgan soha hisoblanmaydi. Hozirda hududda go'sht, sut, tuxum, pilla, jun mahsulotlari yetishtiriladi. 1990 yilda 20,4 ming tonna go'sht, 75,0 ming tonna sut, 3,4 ming tonna jun, 3,3 ming tonna pilla yetishtirilgan bo'lsa, 2010 yilga kelib bu ko'rsatkichlar go'sht tayyorlashda 65,7 ming, sutda 314,3 ming, junda 972,4, pillada 7,1 ming tonnaga teng bo'ldi. Aholi xo'jaliklarida go'sht 96,1, sut 97,6, tuxum 72,1, jun 94,3 foiz ko'rsatgichga ega. Fermer xo'jaliklar ulushi esa juda oz miqdorni tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, viloyatdagi barcha qoramollar soni 427,4 mingtani tashkil etib, xo'jaliklar bo'yicha salmog'i notekis taqsimlangan. Mavjud chorvaning 92,9 foizi aholi xo'jaliklariga, 3,6 foizi qishloq xo'jalik korxonalariga, 3,5 foizi fermer xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Mintaqada qishloq xo'jalik mahsulotlari tayyorlash xududiy tarkibining tahlil qilinadigan bo'lsa, paxta barcha tumanlar uchun xos ekin turi hisoblanadi. Binobarin, Mingbuloq, Pop, Uchqo'rg'on tumanlari bu sohada yetakchi hisoblanib, viloyatdagi paxta maydonlarining 466 foizini egallagan holda hosilni 42,3 foizini beradi. Binobarin, donchilik ham hamma tumanlar uchun ixtisoslashgan soha hisoblanadi. Don tayyorlashda Kosonsoy, CHust, Yangiqo'rg'on, Pop tumanlari ajralib turadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sabzavotchilik va kartoshka yetishtirish SHimoliy Farg'ona adirlarining shimoliy-sharqiy, markaziy qismida joylashgan tumanlar uchun xos ekin turidir. Bu mintaqalarda viloyat sabzavotchiligining 53,0, kartoshkaning 88,4 foizini tayyorlanadi.

Yuqrida keltirilgan iqtisodiy tahlilga asosan Namangan viloyati iqtisodiy salohiyatini turizmni rivojlantirish uchun imkoniyatlarini ijobiy baholash mumkin.

2.2. Namangan viloyati turistik korxonlarning aholi bandligini ta'minlashdagi ahamiyati

Namangan viloyatining tabiiy sharoiti o'ziga xos bo'lgan madaniy rekreatsiya resurslarini joylashishiga imkon beradi. Ularga sihatgohlar, pansionatlar, dam olish zonolari, bolalar dam olish maskanlari, madaniy bog'lar, milliy bog'lar kirib, kishilarni dam olishi va sog'ligini tiklashda katta ahamiyatga egadir. Ayniksa viloyat hududida joylashgan CHortoq, Gulshan, SHahand sihatgohlari nafaqat respublika balki MDX davlatlarida ham mashhurdir.

CHortoq sihatgohi 1946-47 yillarda CHortoqsoy sohilida olib borilgan neft qidiruv ishlari natijasida yer qaridan neft o'rniga issiq, taxir, sho'r suv katta bosim bilan otilib chiqqan. Bu suvning fizik-kimyoviy taxlili N. A.Semashko nomidagi O'zbekiston kurortologiya va fizioterapiya ilmiy tekshirish instituti mutaxassislari tomonidan o'rganilib, uning tarkibida yod, brom, xlor, natriy, kaliy, kaltsiy moddalar mavjudligi hamda uning qimmatli shifobahsh xususiyatga egaligi aniqlangan. SHunga asosan 1949 yili bu hududda 30 o'rinli «CHortoq» bal'neologik shifoxonasi barpo etiladi.

1950-60 yillarda 300 o'rinli bino qurildi va dam oluvchilarning soni ko'paytirildi. Natijada respublika kasaba uyushmalari Markaziy boshqarmasining 1960 yil 31 dekabrda buyrug'iga asosan bal'neologik shifoxona CHortoq sihatgohiga aylantirildi. 1962-75 yillarda sihatgohning har jihatdan rivojlanishi natijasida o'rinlar soni ortdi, yangi davolash yo'nalishlari ochildi, yangi asbob-uskunalar bilan jihozlangan xonalar tashkil etildi.

1980-90 yillarda sihatgohda yurak xastaligi bilan og'rigan bemorlarni davolash 30 o'rinli reabilitatsiya bo'limi ochildi. SHu bilan birga tayanch - harakatlanish, ovqat xazm qilish, ginekologiya, asab tizimini davolash bo'limlarini ochilishi sihatgoh dovrug'ini respublikadan tashqari MDH davlatlariga tarqalishiga sabab bo'ldi.

1969 yili O'zbekiston xuqumatining qaroriga muvofiq CHortoqda bolalar sihatgohi barpo etildi. Bu sihatgohda tayanch harakat a'zolari, bo'g'inbod, markaziy asab va teri kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni davolash hamda maktab dasturi asosida o'qitish, ta'lim berish kabi vazifalarni bajarish uchun sharoit yaratildi.

CHortoq sanatoriysi – bu shifobaxsh maskan CHortoqsoy vodiysi CHotqol tog' tizmalarining janubiy tog' oldi qiyaliklarida, dengiz sathidan 650 m balandlikda, adirlar orasidagi daryo vodiysida joylashgan. Hozirgi kunda mineral suv manbalari asosida davolovchi 1000 o'ringa ega sanatoriy va 354 o'ringa ega yangi bunyod etilgan ambulatoriya mijozlariga sifatli xizmat ko'rsatib kelmokda. Ayni vaqtda kurort majmuada ona va yosh bolalarni davolovchi sanatoriylar ham faoliyat olib bormokda.

Hozirda bu sanotoriyga qo'shimcha imoratlar qo'rib bitkazilmoqda. Sanatoriyda 1–2 kishilik xonalar komfort darajasida jihozlangan. Malakaviy mutaxassislar bemorlarga tashxis muolajalarini qo'yadi. Bu shifo maskanida dam oluvchilar uchun basseyn, dush, sauna, stadion, kutubxonalar xizmat qiladi. Dam oluvchilar uchun esa zamonaviy fizioterapiya, massaj, lazerterapiya, LFK, psixoterapiya, 30 o'rinli zamonaviy tibbiyot anjomlari bilan jihozlangan reablitatsiya markazi malakaviy xodimlari bemorlarga sifatli va arzon yordam ko'rsatadi (11-jadval).

11-jadval

CHortoq sanatoriysida dam oluvchilarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat turlari (2009 yil)

Nomi	O'rinlar	Tibbiy xizmat turlari	14 kunlik yo'llanma bahosi (1kishiga)
«CHortoq» sanatoriysi	1-kishilik, jihozlangan xonalar.	Teri kasalliklari	346440
	2-kishilik, jihozlangan xonalar	Nevrologiya	359840
	2-kishilik	Ginekologiya	367400

	lyuks xonalar		
	Ona–bola reoblitatsion xonalar	Oshkozon ichak kasalliklari	360,080
		Nafas yo'llari	367640

Jadval “YASMINA TUR” turistik tashkiloti ma'lumotlari asosida tuzildi.

SHuningdek, zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlangan diagnostika markazi, fizioterapiya, basseyn, sog'lomlashtiruvchi sport zali, zamonaviy uslubda balchiq bilan davolovchi xonalar hamda 200 o'rinli ona bolalarni parvarish qiluvchi sharoitlarga ega bu sanatoriy butun vodiy xalqiga xizmat qilib kelmokda. Rekrantlar shu yerning o'zida dam olish bilan birga Farg'ona vodiysi buylab qiziqarli sayohatlarga chikadilar. Yuqorida sanab o'tilgan sanatoriy–kurort joylardan tashqari Namangan viloyatida G'ova, Parda Tursin, CHodak, Nihol, Kosonsoy, Ko'k Saroy kabi shifo maskanlari vodiy xalqining dam olishini ta'minlab kelmokda.

Tarixiy rekreatsiya resurslaridan **Axsikent arxeologik yodgorligi** nafaqat viloyatda, balki respublikada mashhur bo'lib yigirma besh gektardan ortiq maydonni egallaydi. Axsikent arxeologik yodgorligini arxeologlar I.Axrorov, A.Anorboev va Y.Qosimov tomonidan o'rganilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Axsikent shahristoni uch tomondan baland minorali devorlar bilan o'ralgan bo'lib, janubiy tomondan Sirdaryo kesib o'tadi va uncha baland bo'lmagan devorlar saqlanib qolgan. SHahristonning sharqiy qismida 10 ta minora bo'lib, ular bir-biridan 20-30 m uzoqlikda joylashgan. SHimoliy tomondan ikkita va g'arbiy qismida uchta minora saqlanib qolgan. SHahristonning o'rta va ichki qismlari mutlaqo buzib yuborilgan. SHunga qaramasdan topografik jihatdan aholi yashagan kvartallar, binolar, hovuzlar, ko'chalar va darvozalarga olib boriladigan yo'llar aniqlandi. SHuningdek shahar o'zining to'rtta darvozasiga ega bo'lib, ulardan ikkitasi g'arbiy tomondan, bittasi shimoliy tomondan va yana biri SHahristonning sharqiy qismidadir.

IX-XIII asrlardagi SHahristondagi obod ko'chalar, hovuzlar, bozor bilan tutashib ketgan zargarlik, temirchilik, boqqollik va umuman savdogarlar mahallalari joylashgan qatlamlar o'rganildi. SHahristonning ichki qismidagi qazishmalar vaqtida ilgari topilgan vodoprovodlarning yangi izlari va gumbaz shaklida qurilgan ajoyib suv inshootlarining qoldiqlari topildi. Axsikentliklarning o'tkir qilichlar va xo'jalik uchun zarur bo'lgan buyumlar tayyorlaydigan ustaxonalari ham topilgan bo'lib, bu topilmalarning hammasi o'rta asrlarda Axsikent SHahristoni eng obod va gavjum joy bo'lganligidan darak beradi.

Munchoqtepa arxeologik yodgorligi. 1989 yil may oyida Munchoqtepa arxeologik yodgorliklarini qazish chog'ida Markaziy Osiyodagi keyingi 30 yil ichida arxeologiya fani qo'lga kiritgan ilmiy yutuqlar orasida muhim qimmatga ega, g'oyat noyob Pop sag'anasi yoki Danu dafinasi deb nomlangan xazina topildi.

Tarixiy yozma manbalarning guvohlik berishicha va arxeologik topilmalarning tasdiqlashicha, eramizning VII asrlariga kelib Pop, G'ovasoy sug'orma dexqonchilik rayonining markazi sifatida yanada rivojlandi. Biroq ana shu shahar markazining juda oz qismigina hozirgacha saqlanib qolgan, xolos. CHunonchi, Arki a'lo (Kreml') va ichki shahar (SHahriston) ning saqlanib qolgan qismlari mahalliy xalq tomonidan Balandtepa deb ataladi. Tashqi shahar (Rabot) hududida esa faqat nekropol'-shahar qabristoni saqlanib qolgan bo'lib, uni Mo'nchoktepa deb ataydilar.

Mo'nchoqtepa aslida to'rtta bir-biriga tutashgan tepalik bo'lib, ularning ikkitasi so'nggi yillarda g'o'za ekilishi tufayli buzib yuborilgan va hozirda ularning o'rni qishloq xujalik ekinlari bilan band. Qolgan ikkitasi ham butun qolmagan, shikastlangan bo'lsada, boy arxeologik materiallar bermokda.

Qamish tobutlar har bir marhumga mos qilib yasalgan. Qolgan ikkitasi uzunchok savat shaklida bo'lib, ularda yangi tug'ilgan chaqaloqlar dafn qilingan. Tobutlarni saqlanish darajasi va o'lchamlari turlicha. Yuqori qatordagi tobutlar, pastdagiga nisbatan ancha yaxshi saqlangan. Jasadlarning tobut ichidagi joylanishini sinchiklab o'rganish paytida, uch holat arxeologlar

diqqatini tortdi. Ko'pgina marhumlarning boshi ostida matodan tiqilgan yostiqcha qo'yilgan. Ba'zi bir hollarda esa yostiqcha o'rnini bir tutam gulpechak egallagan. Diqqatni jalb etgan ikkinchi narsa-dafn etilgan ba'zi kishilarning betiga ipak parda yopilgan. Va nihoyat oxirgisi ayrim jasadlarning oyoqlari maxsus ipak lenta bilan bir-biriga bog'lab qo'yilgan. Yuqorida aytib o'tilgan holatlarning hammasi shu yerda yashab o'tgan qadimgi Farg'ona aholisining urf-odatlarini va diniy qarashlaridan kelib chiqqan.

Marhumlar tobutlarga ust-boshlari, qurol-yarog'lari, zeb-ziynatlari va asbob - uskunalarini bilan qo'yilganlar. Topilmalarga ko'ra kulolchilik bu yerda yashab o'tgan aholi hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Buni yangiday turgan 80 ga yaqin idish - tovoqlar tasdiqlab turibdi.

Qadimgi Pop aholisi orasida to'qimachilik alohida hunarmandchilik sohasi sifatida keng rivojlangan. Buni ikki xil matodan (ipak, paxta) qilingan ustbosh qoldiqlari tasdiqladi. SHuni ta'kidlash kerakki, ipakdan qilingan materiallar ko'proq topildi, xatto ikkita ayol ko'yilgan butunligicha saqlanib kolgan. Tukuv dastgohlarining qoldiqlari qadimda bu yerda markazlashtirilgan to'qimachilik ustaxonalarini bo'lganligidan dalolat beradi.

SHuningdek topilmalar ichida har xil kattalikdagi naqshli yog'och idishlar, murakkab kamonlar, tarozi pallalari, xayvon suyaklaridan yasalgan turli-tuman qurol-aslaha dastalari, o'q-yoy bo'laklari, jim-jimador naqsh bilan bezatilgan pichoq dastalari ham bor.

Sag'anada qamishdan qilingan ko'xna sag'ana musiqa asboblari, jumladan qo'shnay topildi. Ayniqsa charmdan qilingan mesh va poyafzal tikish qolipi diqqatga sazovordir. Qolip 42-43 razmerlarga to'g'ri kelib, yog'ochdan o'yib ishlangan. Temir buyumlar ichida ko'proq pichoq, hanjar, kamar tukasi uchraydi, lekin ularning saqlanishi juda yomon.

Sayyohlar dunyoni kengroq anglash, bilish maqsadida o'zi uchun noma'lum bo'lgan joylarni ko'rishga va o'rganishga bo'lgan extiyoji yildan-yilga kuchayib bormoqda. Bu o'z navbatida turistik ob'ektlar turlarining kengayishiga, turistik biznesning yuzaga kelishiga olib keldi.

Rekreatsiya ob'ektlarida nafakat turizmga balki sog'lomlashtirish bilan birgalikda tarixiy, madaniy, tabiiy, ekoturistik kabi ko'plab turlar vujudga keldi. Masalan, keyingi yillarda noyob landshaft zonalarini, iqlimi qulay va noqulay maskanlarga (cho'l, g'or, muzliklar, okean osti dunyosi va hokazo) sayohat uyushtirish kengaymoqda.

Namangan viloyati turistik korxonalarini geografiyasi xilma-xil bo'lib, mintaqada o'ziga xos turistik marshrutlarni yo'lga qo'yish mumkin. Bu yerda bizningcha viloyat turistik korxonalarining imkoniyatlarini quyidagi asosiy yo'nalishda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir:

- madaniy turistik ob'ektlar. Inson tomonidan yaratilgan asrlar davomida saqlanib kelinayotgan tarixiy binolar, arxitektura yodgorliklari, arxeologik topilmalar, xarobalar, diniy ziyoratgohlar, qadamjolar, qabristonlar, milliy xunarmandchilik, urf-odatlar va boshqalarni o'z ichiga olib viloyat turistik korxonalarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

- tabiiy turistik ob'ektlar. Bularga tabiat tomonidan yaratilgan noyob yodgorliklar, jumladan, karst g'orlari, shifobaxsh buloqlar, balchiqlar, manzarali landshaft, qo'riqxona, to'qay va undagi o'simliklar, xayvonot olami, nurash natijasida xosil bulgan shakllar va hokazolarni kiritish mumkin. Namangan viloyatining tabiiy sharoiti, iqlimi va suvlari hamda o'ziga xos landshaft ko'rinishlari geologik davrlar davomida shakllangan. Ularni rekratsion ob'ekt sifatida o'rganish ham ahamiyatlidir.

Namangan shahrini o'zida joylashgan Usta mulla Qirg'iz madrasasi, Usta mulla Qirg'iz tomonidan qurilgan ota Valixon to'ra masjidi «Bobur» nomidagi madaniyat va istiroxat bog'i bilan tanishtirish sayyohlarda katta taassurot qoldiradi.

Namangan viloyati turistik korxonalarda aholi bandligini ta'minlashda mehmonxonalar, pansionatlar, sanatoriylar, turistik bazalar, kempinglar, dam olish uylari, otel, bungalo, ratel va flatel kabilarni tashkil etish va ulardan samarali foydalanish asosiy muammolardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda Namangan viloyatining Kosonsoy, CHust, Pop, Yangiqo'rg'on tumanlarida turistlarga xizmat ko'rsatuvchi dam olish uylari va panisionatlar faoliyat ko'rsatmoqda. Turistlar uchun yaratilayotgan sharoitlar asosan Namangan shahridagi «Fitnes», «Istiqlol», «Namangan-

S», «Do'stlik», «Turkiston», «Saydana» kabi sifatli xizmat ko'rsatuvchi zamonaviy uslubdagi turistik majmualar hisobiga ortib bormokda. Birok so'ngi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra kelayotgan turistlar oqimi Farg'ona, Andijon keyin Namangan viloyatiga qaratilgan.

12-jadval

Farg'ona vodiysida 2009 yilda tashrif buyurgan sayyohlar xakida ma'lumot (1000 kishi hisobida)

Viloyatlar	Umumiy turistlar soni	SHundan chet elliklar	SHundan MDX mamlakatlaridan	Mahalliy sayyohlar
Andijon	7,2	0,03	0,01	7,16
Namangan	6,5	0,04	0,02	6,44
Farg'ona	13,9	0,5	1,1	12,4
Jami:	27,6	0,57	1,13	26

Jadval O'zbekiston statistik ma'lumotlari asosida tuzilgan

12-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, Namangan viloyatida turistlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlarga qaramay Farg'ona viloyatiga kelayotgan turistlar soni vodiydagi har ikkala viloyatga nisbatan yuqori. Albatta, buni o'ziga xos sabablari bor, birinchidan viloyatda tarixiy – me'moriy hamda rekreatsiya resurslarining ko'pchiligi, qolaversa, har ikkala viloyatga ham sayohat uyushtirish uchun qulay joy, markazda joylashgani kabi bir qancha omillar viloyatga sayyohlarni ko'proq kelishini ta'minlaydi. SHu bilan birga viloyat markazida faoliyat olib borayotgan uch yulduzli «Ziyorat» mexmonxonasi vodiy tarixiy obidalarini tamosha qilish uchun kelgan har qanday sayohatchilarga manzur bo'ladi.

Namangan viloyatidagi turistik marshrutlarni quyidagi belgilash maqsadga muvofiqdir:

- 1.Namangan-Axsikent;
- 2.Namangan-CHust-G'ovasoy;
- 3.Namangan-Kosonsoy;
- 4.Namangan-Nanay;
- 5.Namangan-Munchoqtepa;
- 6.Namangan-Pop-CHodak yunalishlari;

1. Namangan-Axsikent yo'nalishi. Bu yunalishda Axsikent yodgorligi asosiy o'rin tutadi. Axsikent tarixiy yodgorligi Sirdaryoning o'ng soxilida joylashib, hozirda tepaliklar ko'rinishida saqlanmoqda.

Arxeologik institutining xodimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra bu tepaliklar ostida uchta shahar barpo etilganligi aniqlandi. O'rta asrlarda Axsikent, Farg'ona vodiysining iqtisodiy jihatdan rivojlangan markazi hisoblangan. SHahar 1620 yilda sodir bo'lgan kuchli zilziladan vayron bo'lgan.

2. Namangan-CHust-G'ovasoy yo'nalishida o'z xunarmandlari bilan dong taratgan CHust shahri va xushmanzara joylari, juda ko'p rekreatsiya resurslari mavjudligi bilan ajralib turadi. G'ovasoy havzasi sayyohlar dam olib xordiq chiqarishida katta ahamiyatga ega. CHust xunarmandlari tomonidan tayyorlangan pichoqlar, CHust do'ppilari, so'zanalari bejirimligi kishini o'ziga tortadi. Ayniqsa shahar markazidagi «Mavlono So'fizoda» nomidagi madaniyat bog'i o'zining ulkan daraxtlari va zilol buloq suvlari bilan nafaqat, vodiya balki butun respublikada mashhurdir. CHust shahridan 2 km shimolda G'ovasoy soxilida ko'xna tepalik mavjud bo'lib, bu xalq tili bilan aytganda Buonamozor nomi bilan yuritiladigan qishloqdir. Bu yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar Buonamozor yodgorligi miloddan avvalgi 2000-yillikning oxiri 1000-yillikning boshlariga to'g'ri keladi deb hisoblashadi. Buonamozorliklar sug'orma dexqonchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. CHunki bu yerdan topilgan dexqonchilik qurollari va g'alla saqlanadigan o'ra-omborlar, xumlarda saqlanib qolgan arpa, bug'doy, tariq, so'li, no'xot qoldiqlari buni tasdiqlaydi.

G'ovasoy o'zining xushmanzara joylari, toza tog' xavosi iqlimining o'ziga xosligi bilan kishilarni dam olishi qulaydir.

Viloyatda turizmni va rekreatsiyani tashkil etish va yuksaltirish mintaqada mavjud sayyohlik marshrutlarini o'rganish va yangilarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunday tadqiqotlar mukammal va ilmiy tavsiyalarga asoslangan marshrutlardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Aks holda hududning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ko'plab muammolar vujudga keladi. SHuning uchun Namangan viloyatida sayyohlik marshrutlarini ishlab chiqish kelajakda katta ahamiyatga egadir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha mintaqada bazibir turistik marshrut yo'nalishlarini tashkil qilishda tekislik, tog' va tog' oldi, diniy, etnografik-madaniy hamda ekoturistik sayyohlik imkoniyatlarini hisobga olish lozimdir.

SHunga muvofiq G'ovasoy sohilida dam olish zonalari, bolalar oromgoxlari barpo etilgan. Bu yo'nalishda sayyohlar tarixiy obidalar va xushmanzara so'lim joylar bilan bir vaqtda tanishishlariga imkon bo'ladi.

3.Namangan-Kosonsoy yo'nalishi. Kosonsoy o'zining arxeologik yodgorliklari va so'lim tabiati bilan vodiya asosiy o'rin tutadi. Qadimgi Koson shahri qal'asi va minoralar qoldiqlari tepalik kurinishini egallagan. Koson shahriga eramizdan avvalgi I asrda asos solingan bo'lib, Kushon davlati xukmronlik qilgan davrda Farg'ona vodiysining bosh shahri hisoblangan xunarmandchilik rivojlangan.

Kosonsoy daryosi soxillari rekreatsiya resurslari bo'lib xizmat qilmoqda. SHu maqsadda dam olish zonalari va bolalar oromgoxlari barpo etilgan.

Professor A.Bernshtamning «Ko'xna Farg'ona» (1951 yil) kitobchasida va gazeta xabarlarida 1947-1948 yillarda Kosonsoy tumani hududida o'tkazilgan qazishmalarning natijalariga ko'ra shu yerda Mug'xona yodgorligi topilib, o'rganilganligi ta'kidlab o'tildi. Mug'xona (qurum, mug'tosh)lar qadimda birinchidan otashparastlar qarorgoxi bo'lsa, ikkinchidan eradan avvalgi III-II va melodiy V-VI asrlarda o'tov shaklida toshdan yasalgan qabr inshootlari vazifasini bajargan. Hozirgi Kosonsoy shahri yaqinida ilk bor A.Bernshtam tomonidan topilib, keyinchalik turli tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan Mug'xona inshootlarining devorlari siniq va yupqa toshlardan qorishma ishlatilmay, oval shaklida (5 x 8, 5 m) qurilgan. Ichki xonaning chiqish tuynugi bo'lib, toshtaxta bilan berkitilib qo'yilgan. Mug'xonadan odam suyaklari, ko'za, tuvak, dastali piyola, pichoq, qilich va jez, temir o'q uchi, jez ko'zgu, zirak, munchoq va boshqalar topilgan. Idishlar qizil va qora angob bilan tirnab, xoshiyalangan. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, Mug'xona topilmalari SHimoliy Farg'onaning yarim o'troq qabilalariga mansubdir.

4.Namangan-Nanay yo'nalishlari. Nanay qishlog'i viloyatning shimolida, Podshootasoy soxilida joylashgan. Qishloq tabiatining go'zalligi, toza havosi, tez oqar Podshootasoy sayyohlarni miriqib dam olib, xordiq chiqarish uchun yetarli imkoniyatlar yaratadi. Nanay qishlog'ida «Ko'ksaroy» turistik bazasi barpo etilgan bo'lib, yiliga 2500 dan ortiq kishilr dam oladilar.

5.Namangan-Munchoqtepa yo'nalishi. 1989 yil may oyida Munchoqtepa arxeologik yodgorliklarini qazish chog'ida g'oyat noyob Pop sag'anisi topilishiga sabab bo'ldi. Pop sag'anasi yer osti qurilmasi bo'lib, balandligi 2 metr, satxi 15 m² ni tashkil etadi. Sag'anada xammasi bo'lib 47 ta tobut besh qavat holda ustma-ust qo'yilgan. Tobutlar asosan qamishlardan yasalgan. Bu tobutlar har xil yoshdagi erkaklar va ayollar jasadlari bo'lib, shundan 22 tobut saqlanib qolgan.

Topilmalar ichidagi idish-tovoqlar, ipakdan tayyorlangan materiallar, to'quvchilik dasgoxlarining qoldiqlari, qimmatbaho toshlardan va xayvon suyaklaridan yasalgan 10 000 donaga yaqin munchoqlar, qo'xna musiqa asboblari bu yerda kulolchilik, to'qimachilik, xunarmandchilik kabi sohalar rivojlanganligidan darak beradi. Bu tarixiy yodgorliklar sayyohlar uchun qadimgi Farg'ona aholisining urf-odatlarini hududiy o'zlashtirish holati, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy xayoti bo'yicha batafsil ma'lumotlar beradi. Namangan viloyatida boy rekreatsiya resurslarining mavjudligi bu resurslarga investitsiyalarni jalb etish, yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish, sayyohlik xizmati orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun yetarli imkoniyatga egadir.

6.Namagan-Pop-CHodak yo'nalishi. Bu marshrut turli maqsadlarga yo'nalishi bilan xarakterlidir. CHunki, unda tabiiy, tarixiy, diniy va madaniy hamda tog' ekoturistik imkoniyatlari yuqoridir. Pop viloyatdagi eng qadimiy va tarixiy shahardir. Pop shahriga tashrif buyurgan sayyohlar xalq amaliy san'ati, milliy xunarmandchilik buyumlari, shuningdek zargarlik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi, kashtachilik va boshqa mahsulotlar bilan bevosita tanishadilar. Pop shahridan boshlanadigan tog' marshrutlari ham ko'pchilikni qiziqti-radi. Ayniqsa, tog' yon bag'rida joylashgan CHodak qishlog'i so'limligi bilan ajralib turadi. CHodaksoy bo'yiga qurilgan qisqa muddatli dam olish joylari, bolalar ormgohlarida xordiq chiqarish, shuningdek tog' yo'nalishlari tomon qilingan ishlari ekoturizm kishilarni yaxshi dam olishga yordam beradi.

Bu topilmalar Namangan viloyatida ishlab chiqaruvchi kuchlarni o'z davrida yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

2.3. Namangan viloyati turistik korxonalari muammolari va ularni xal etishning ustivor yunalishlari

Turizm industriyasini tashkil etish bevosita turizmning moddiy texnik bazasi va turistik infratuzilmalarning qay darajada rivojlanganligi bilan bog'liqdir. Xususan, turizm industriyasi o'z ichiga xo'jalikning ko'plab tarmoqlarini, jumladan, transport, ovqatlanish ob'ektlari, ko'ngilochar maskanlar tanishuv ob'ektlari, ishbilarmonlik, sog'lomlashtirish, sport, turoperator va turagentlik, ekskursiya va gid- tarjimonlik kabi xizmatlar majmuasidan iborat xo'jaliklarning bir turi sifatida qaraladi. Turizm industriyasi bevosita moddiy-texnik baza va mehnat resurslarini bandligi iqtisodiyotning majmual rivojlanishiga xizmat qiladi. SHuningdek, bu soha iqtisodiyotning tarmoqlararo aloqasi bilan bog'liq majmualarni hududiy qamrab oladi. Jumladan, yo'lovchi tashish transporti (avtomobil, havo, temir yo'l va x.k.) va ularga xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, turli ixtisoslashgan turistik tashkilot va korxonalarni, turizm yadrosiga kirmaydigan sohalar (transport mashinasozligi, avtomobilsozlik, yoqilg'i sanoati, yo'l qurilishi, mahalliy sanoat va sovg'abop suvinerlar tayyorlash, oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi va boshqa) ni ham qamrab oladi va uni yanada rivojlantirish, xarakatga keltirishga xissa qo'shadi.

Turizm industriyasi (TI)da uning moddiy texnik bazasi, ya'ni, turistik firmalar, turagentliklar, mexmonxonalar, turbazalar, ovqatlanish, savdo va maishiy xizmat sohalarini qamrab oladi. SHu jihatdan turizm jahon xo'jaligi tarmoqlarida eng serdaromad va tez rivojlanib borayotgan sohaga aylandi. U jahon yalpi daromadining 10% ini tashkil etib, jahon eksportining 8 % ini, jahon xizmatlar savdosining 30 % ini, jvhon yalpi mahsulotining 11 % ini, soliq tushumining 5 % ini tashkil etmoqda. O'tgan asrning 50-yillarida 2,1 mlrd AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, hozirgi kunda 444,7 mlrd AQSH dollariga o'sgan. Bu sohadan katta miqdorda AQSH (74,2 mlrd), Italiya (30,4 mlrd), Frantsiya (29,7 mlrd) Ispaniya (29,6 mlrd) Buyuk Britaniya (21,3 mlrd) Germaniya (16,8 mlrd), Xitoy (12,5 mlrd), Avstriya, Kanada (10 mlrd) kabi davlatlarda turizmdan keladigan daromad yuqori bo'lib, xo'jalikning ajralmas qismiga aylangan. Keyingi yillarda dunyo bo'yicha turizm sohasida 820 mln kishi ishtirok etib ularning migratsiyasi mintaqalarda turizm industriyasini rivojlantirishga katta xissa qo'shmoqda. Bu o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ortib ko'plab davlatlarda eng asosiy xo'jalikning tarmog'iga aylangan. TI rivojlanishi natijasida qo'yidagi omillar rivojlanadi:

- hududning milliy daromadining oshishiga;
- yangi ish o'rinlarining yaratilishiga;
- turistik xizmatlar bilan bog'liq ishlab chiqarish turli sohalarining rivojlanishiga;
- turistik markazlarda ijtimoiy va infra tuzilmaning shakllanishiga;
- madaniyat markazlari, xalqlar madaniy merosini yanada yaxshilashga;
- aholining yashash tarzi va salohiyatining o'sishiga;
- valyuta turmushining oshishiga xizmat qiladi.

SHu jihatdan mamlakatimiz milliy iqtisodiyotning ustunlari hisoblangan sanoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa sohalar singari turizm industriyasi tez o'sib bormoqda. Ammo TI yanada rivojlantirish, hududlardagi imkoniyatlar kengroq xalqaro turistik marshrutlarga kiritilishi, ulardagi mavjud infratuzilma muammolarini hal etish kabi masalalar mavjud.

Kelajakda bu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari yoki «turizm yili» deb nomlanishi natijasida katta masshtabda turizm industriyasi bilan bog'liq masalalar hal etilishi mumkin, deb hisoblaymiz. Respublikamizda hozirgi kunda turagentliklar, turfirmalar avvalo halqaro miqyosda turli ko'rgazmalarda ishtirok etib kelishi va turmaxsulotlar reklama qilinishi kelajakda chet ellik turistlarning mamlakatimizga yanada ko'proq kelishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ortiqcha mehnat resurslarini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasiga xukumatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. SHu jihatidan turizm industriyasi sohasida yangi ish o'rinlarining yaratilishi bevosita keladigan turistlarning soni oshib borishi bilan ham bog'liqdir.

Buning uchun mavjud tursalohiyatimizdan foydalanib, xanuzgacha mahalliy turizmga tartibsiz foydalanib kelinayotgan nodir va noyob turob'ektlar, rekratsiya maskanlarini kadastrlash, kartalashtirish, salohiyati bo'yicha tasniflash, geografik tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Turizm industriyasini harakatga keltirishda malakali mutaxassislar tayyorlash va sohaga jalb etish, mavjud imkoniyatlarni turistlarga qiziqarli va xayratlanarli tushuntirib beruvchi gid tarjimonlar salohiyatidan, xalqaro internet tizimidan foydalanishga hamda reklama qilishni kuchaytirish katta ahamiyatga ega.

Mintaqa turizmini rivojlantirish ayni paytda ko'pgina muammolarni hal etishni taqozo etadi. Bu borada kichik va o'rta turistik korxonalarini bapo etish xususiy tadbirkorlar oldida turgan eng muhim muammolardan hisoblanadi. Buning uchun quyidagi muammolarni hal etish talab etiladi:

- sayyohlik firmalariga dastlabki imtiyozli sarmoyalarni maqsadli ajratish va moddiy texnik bazasini mustahkamlashga yordam berish;
- turizm sohasi bo'yicha tadqiqot olib boradigan oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda ish olib borish;
- turli yo'nalishda faoliyat yuritadigan malakali kadrlar masalasi va mavjud mutaxassislar malakasini xorijiy davlatlarda oshirish;
- xorijiy davlatlarda faoliyat ko'rsatadigan kichik sayyohlik firmalar ish faoliyatini o'rganish;
- kichik va o'rta turistik korxonalarining mavjud sayyohlik imkoniyatlaridan to'laligicha foydalanishni yo'lga qo'yish uchun marketing xizmatiga e'tiborni qaratish va h.k.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Namangan shahridagi mavjud turistik maskanlar geografik o'rniga ko'ra qulay joylashgan bo'lib, bu yerda qisqa muddatli sayyohlikni tashkil etishda mehnat resurslari, transport va yo'l qurilishiga o'xshash muammolar tug'ilmaydi. Faqatgina turistik infratuzilmani tashkil etish lozim bo'ladi xolos. Bundan tashqari, shaharga yaqin bo'lgan Kosonsoy daryosi va Nanay qishloqlari tog'larida ham bir qancha dam olish ekoturistik ob'ektlari mavjud bo'lib, ulardan shaharliklar dam olishida foydalanishlari ehtimoldan holi emas. Bu yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun shaharda faoliyat ko'rsatayotgan turistik korxona va firmalar qiziqishini oshirish, shahar hokimligi tomonidan ularga imkoniyatlar yaratish maqsadga muvofiqdir. SHu o'rinda, viloyatning qishloq joylarida yashaydigan aholining ham qisqa muddatli dam olishini tashkil etish uchun turistik so'rovnomalar o'tkazish, xohish va istaklarini o'rganish muhimdir.

Namangan viloyatida turizmni rivojlantirish, bizningcha, quyidagilarga imkon beradi:

- shahar va qishloq aholi manzilgohlaridagi ortiqcha mehnat resurslarini ish bilan ta'minlaydi va yangi ish o'rinlari vujudga keltiradi;
- aholi salomatligini yaxshilaydi, sog'lomlashtiradi, ruhan tetiklashtiradi va mehnat unumdorligini oshiradi;

▪ dam olish hududlari, xususan, tog' va tog'oldi mintaqasi ekoturistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish katta iqtisodiy foyda keltiradi va shu joyning ekologik holatini yaxshilaydi;

▪ mintaq turizmini yuksaltiradi hamda tumanlarda turistik infratuzilmani shakllantiradi va h.k

SHunday qilib, aytish mumkinki, sayyohlikni to'g'ri tashkil etish, rekreatsiya va dam olish maskanlaridan oqilona foydalanish mehnat resurslarini turizmga keng jalb etish imkonini yaratadi.

Ma'lumki, sayyohlikni rivojlantirish uchun avvalo ularni talab va istaklaridan kelib chiqqan holda joylashtirish eng muhim masalalardan biridir. Bu o'rinda turistlarni joylashtirish vositalari va turlaridan, jumladan, mehmonxonalar, pansionatlar, sanatoriylar, turistik bazalar, kempinglar, dam olish uylari, otel, bungalo, ratel va flatel kabilarni tashkil etish va ulardan samarali foydalanish asosiy muammolardan hisoblanadi.

Viloyatdagi mehmonxonalar asosan xorijiy va mahalliy sayyohlarni joylashtirish bilan birga ko'pgina xizmat turlarini ham ko'rsatib kelmoqda (13-jadval). Ma'lumotlar bo'yicha Namangan shahridagi "Saydana", "Turkiston", "Namangan-S", "Fitnes" kabi turli qulayliklarga ega bo'lgan mehmonxonalar faoliyati, shuningdek, xususiy sihatgohlar ishini yuqori baholash mumkin. Ammo, ayni chog'da, sayyohlarni joylashtirish bo'yicha qishloq tumanlari markazlaridagi mehmonxonalar faoliyati yaxshi emas. Bu borada turizmga e'tiborning kamligi tufayli sayyohlarni jalb qilish va xizmat ko'rsatish yo'q darajadadir. Bizning nazarimizda, faqatgina Namangan shahrida emas, balki uning tumanlarida sayyohlikning o'ziga xos turlarini rivojlantirish orqali ko'plab muammolarni hal qilish mumkin.

13-jadval

Namangan viloyati turistik korxonalarining sayohlarni qabul qilish tarkibi

№	Turistik korxonaning nomlashi	CHet ellik sayyohlar	MDH sayyohlari	Maxalliy sayyohlar	Jami
1	Ko'k-Saroy OAJ	0	0	6000	6000
2	Makon servis OAJ "CHorsu"	26	39	8443	8498
3	"Istiqlol" mexmonxonasi	191	101	2268	2560
4	"Fitnes" sport klubi	19	27	2261	2307
5	"Saydana" qo'shma korxonasi	18	25	882	925
6	"Namangan-S" mexmonxonasi	267	249	4653	5169
7	"Turkiston" MCHJ	66	33	1762	1861
8	"Do'stlik" tennis klubi	15	72	721	808
	Jami	602	546	22980	24128

Jadval: Namangan viloyat turizm boshqarmasi ma'lumotlari

Kempinglar asosan yozda dam oladigan sayyohlarga xizmat qiladi. Avtoturistlar yengil tipli uylarga yoki palatkalarga joylashadi. Demak, viloyatda mavsumiy sayyohlik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tog' va tog' oldi, suv omborlari, daryo sohillari (Kosonsoy daryosi xavzasida, G'ovasoy daryosi havzasida, CHodak, CHorkesar, Nanay va Mamay tog'larida, Varzik va Rezaksoy suv omborlari, Norin daryosi) kempinglar imkoniyati yuqoridir.

Motel'- avtoturistlarga xizmat qilish kompleksini taklif etadi. Namangan viloyati geografik o'rnining qulayligi va respublika hamda xalqaro ahamiyatga molik transport yullarning kesib o'tganligi mintaqaga keladigan va o'tkinchi sayyohlarga xizmat ko'rsatishdan katta iqtisodiy foyda olishga imkon beradi. Sayyohlarning Namangan shahri va uning tumanlaridagi turistik ob'ektlarga tashrif buyurish paytlarida asosan avtoturist sifatida motellardan keng foydalanadi.

Bungalo - bu ayvon bilan o'ralgan bir qavatli turar joy, yengil metal yoki boshqa materiallardan qurilgan uydur. U iqlimi issiq mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Bizning sharoitimizda yoz kunlarida tabiatning go'zal joylari va boshqa ob'ektlarga qisqa va uzoq muddatli dam oluvchi sayyohlarga mo'ljallab tashkil etish imkoniyatlari mavjud.

Ratel'- bu ko'chma mehmonxona bo'lib, u barcha qulayliklarga ega vagon uydur. Bunday vagonlarni mavsumiy va qisqa muddatli sayyohatga chiquvchilarga taklif qilish mumkin. Ko'chma uylarni Norin daryosi sohillari, Oqqum cho'liga va boshqa tabiati go'zal maskanlarga bahor oylarida joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Viloyat aholisining ko'pchilik qismi qishloq ho'jaligi va sanoat ishlab chiqarishida band. Ammo mehnat resurslarining ish o'rinlariga nisbatan tez o'sib borishi aholi bandligi va boshqa ijtimoiy muammolarni vujudga keltirmoqda. SHundan kelib chiqqan holda viloyat aholisining bir qismini turizm, xizmat ko'rsatish va boshqa tarmoqlarga jalb qilish lozim. Buning uchun mintaqada turizm infratuzilma va industriyasini yuksaltirish, xizmat turlarni kengaytirish va rivojlantirish masalalarini yechish talab etiladi. SHu o'rinda mahalliy va xalqaro avtomobil yo'llari kesib o'tgan (Pop, CHust, Namangan, Mingbuloq) tumanlarda turistik xizmat ko'rsatish kengaytirish har tomonlama ahamiyatlidir.

Mintaqa turizmi olidida turgan eng muhim muammolardan yana biri qisqa muddatli sayyohlikni tashkil etish masalasidir. Kishilar jismoniy va aqliy mehnat qilishi natijasida toliqadi va dam olishga ehtiyoj sezadi. Binobarin, aholining mehnat qobiliyatini oshirish, ruhan tetiklashtirish avvalo turistik sayohatlar va ayni paytda sayyohlik xizmatining qay darajada tashkil etish bilan bog'liqdir.

Sayohatlar uzoq (mehnat ta'tili) va qisqa (xaftaning dam olish kunlari va ishdan bo'sh vaqtlari) muddatli bo'ladi. Demak, uzoq muddatli sayohatlar paytida inson o'z salomatligini tiklashi, hordiq chiqarishi, go'zal va takrorlanmas joylarni tomosha qilishi, bevosita aniq marshrutlar va yo'llanmalar asosida tashkil etiladi. Qisqa muddatli sayohatlar esa dam olish kunlari yoki ma'lum ish yuzasidan biror joyda, o'lkada, mamlakatda bo'lishi paytida bilvosita sayohatning ushbu turida ishtirok etishidir. Bu xususda hozirgi paytda Frantsiya, Ispaniya, Germaniya, SHveytsariya kabi turizm sohasi va undan keladigan daromad bo'yicha yetakchi mamlakatlarda turizmning barcha turlari, shu jumladan qisqa muddatli sayyohlikni tashkil etish yaxshi yo'lga qo'yilganligini alohida ta'kidlab o'tish lozimdir.

O'zbekiston turizm istiqbolini belgilashda shahar va qishloq aholisining qisqa muddatli sayohatlarini tashkil etish katta ahamiyatga ega. Bu turdagi tarmoqni rivojlantirish uchun o'lkamizda katta imkoniyatlar mavjud. SHu o'rinda mavsumiy sayyohlikni rivojlantirish, ya'ni qish faslida tog' va tog' yonbag'irlarida chang'i uchish, ko'tarma yo'llar orqali sayr qilish, bahor oylarida tabiatning uyg'onishi va go'zalligini o'z ko'zi bilan ko'rishni har bir inson orzu qiladi. Bunday xizmat turlari qisman (CHimgan dam olish majmuasi, CHimyon, CHortoq, CHotqol va boshqalar) respublikaning ba'zi mintaqalarida tashkil etilgan, xolos. Vaholanki, yuqorida ta'kidlab o'tgan turistik ob'ektlarni O'zbekistonning yuzlab joylarida ham tashkil qilish imkoniyatlari mavjud.

Namangan viloyatida bir qancha turistik xizmatlar tashkil etilgan bo'lsada, ammo shahar va qishloq aholisining qisqa muddatli dam olishini yo'lga qo'yishda bir qancha ishlar amalga oshirilishi kerak. Viloyat aholisi dam olish kunlari va ishdan bo'sh paytlarida shahar markaziy xiyoboni, viloyat tog' daryolari (Kosonsoy, Podshotasoy, CHortoqsoy, Rezaksoy, G'ovasoy) sohillarida va boshqa joylarga dam olishga chiqishadi. Bu xususda shahar aholisining qisqa muddatli dam olishini tashkil etish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlash joiz. Buning uchun avvalombor shahar atrofidagi turistik o'ektlarni chuqur ilmiy jihatdan tadqiq qilish lozim.

SHuningdek, viloyatning qishloq joylarida yashaydigan aholining ham qisqa muddatli dam olishini tashkil etish muhimdir. SHu o'ringa xalqimizning turli bayramlar, diniy ziyorat tadbirlarida muqaddas qadamjollarga tashrif buyurishi mavsumiy bayram va tadbirlarda viloyat aholisidan tashqari Andijon, Farg'ona kabi qo'shni hududlar aholisining ham kelishini e'tiborga olish kerak.

Demak, aholining qisqa muddatli dam olishini tashkil etish avvalo aholining mehnat qobiliyatini yaxshilash, ish unumdorligi oshirish hamda shaharga tashrif buyurgan chet ellik va mahalliy sayyohlarning dam olish vaqtini oshirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Viloyat hududidagi barcha turistik ob'ektlarni kadastrlash, ya'ni ro'yxatga olishda tarixiy obidalar, arxitektura, arxeologik yodgorliklar, diniy qadamjoylar, qabriston, xonaqo va masjidlar turistik ob'ektlar ro'yxatiga kiritilishi va baholanishi kerak. Ayni paytda etnografik, ya'ni tarixiy va qadimiy mahallalar, choyxonalar, milliy an'analar, urf-odatlar, hunarmandchilik va boshqalar ham inobatga olinishi lozim

Bundan tashqari:

- ❖ viloyat hududidagi tabiiy yodgorliklar, g'orlar, chashmalar, qadimiy chinorlar, rekreatsiya va sog'lomlashtirish hamda dam olish maskanlarini o'rganish, xaritalashtirish va kadastrlash;
- ❖ viloyatga tashrif buyurayotgan sayyohlarning turistik vaqtini ko'paytirish va viloyat hokimiyati qoshida turizm ishini muvofiqlashtiruvchi bo'lim ochish,
- ❖ turizmni rivojlantirish uchun ajratiladigan ma'lum mablag'larni kadastrlash ishiga yo'naltirish,
- ❖ chet ellik sayyohlarining mazmunli, qiziqarli dam olishini tashkil qilish va ularga tavsiya etilayotgan turistik ob'ektlarning aniq ro'yxatini tuzish, ularni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish saviyasini oshirish eng katta muammolardan hisoblanadi.

Aytmoqchimizki, kadastrlashning iqtisodiyotning ko'pgina tarmoqlari qatori turizm ham roli yuqoridir. Har bir narsa, buyum, mahsulotning tannarxi bo'lgani singari turistik obidalar ham bebaho yoki qadri-qiyatiga ega. SHu bois, turistik ob'ektlarda sayyohlikni tashkil etish va rivojlantirishda aniq olib borilgan kadastrlash masalasi muhimdir.

Yuqorilardan kelib chiqqan holda Namangan viloyatida turizmni rivojlantirish uchun, bizningcha, quyidagi muammolarni hal etish lozim:

▪ Viloyatda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlarga amaliy yordam berish, xorijiy hamkorlarni topish, huquqiy maslahat va uslubiy yordam ko'rsatish, dunyo mamlakatlarida o'tkaziladigan sayyohlik yarmarkalarida qatnashish va ushbu yarmarkalarni viloyatda o'tkazishni tashkil etish;

▪ Milliy an'analarni namoyon etuvchi mahalla va choyxonalar hamda qadimiy me'morchilik usullari saqlanib qolgan uylarni aniqlash va turistik marshrutlarga kiritish;

▪ Namangan shahrida xalq amaliy san'ati, xalq og'zaki ijodi, milliy urf odatlar, marosimlarni sayyohlarga namoyish etishni tashkil etish;

▪ Viloyat hududigi turistik ob'ektlarga boruvchi yo'llarni ta'mirlash va obodonchilik ishlarini olib borish;

▪ Yuqori malakali kadrlar tayyorlash, jumladan, NamDU va NamII bazasida (iqtisodiyot va geografiya fakul'tetlarida) turizmni ilmiy jihatdan o'rganuvchi ixtisosliklar ochish;

▪ Viloyat hududidagi tog'larning rekreatsiya imkoniyatlari hamda sayyohlik yo'nalishlarini aniqlash, tumanlardagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlar, dam olish maskanlarini o'rganish va aziz qadamjoylarni sayyohlik marshrutlariga kiritish;

▪ Namangan viloyatidagi mavjud turistik ob'ektlarni reklama qilish, jumladan, ularning rivojlangan va, ayniqsa, musulmon davlatlarida reklamasini tashkil etish va h.k.

Namangan viloyati turizmini yuksaltirish va mavjud muammolarning echimi vazirliklar, viloyat hokimligi hamda «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi hamkorligida barcha muammolarning tarkibiy jihatlarini qamrab olgan holda amalga oshirilishi lozimdir.

Xulosa

Ushbu olib borilgan tadqiqotda turistik korxonalarda aholi bandligini iqtisodiy jihatlarni o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Turizm iqtisodiyotining ko'pgina fanlar bilan, xususan birinchi navbatda iqtisodiy fanlar, shu jumladan mintaqaviy iqtisod, menejment, shuningdek, arxitektura va tarix kabi fanlar bilan bog'liq ekanligi aniqlandi;

2. Turizmni iqtisodiyotning asosiy tarmog'i sifatida qaralganda uning to'rtta asosiy bo'g'inlariga ajratish mumkin; xalqaro, milliy, mintaqaviy va mahalliy turizm. Biz bu yerda mintaqaviy va mahalliy turizm haqida fikr yuritilib, hozirgi kunda ahamiyatli ekanligi isbotlandi. Mintaqaviy va mahalliy turizm mamlakatni ma'lum bir hududida o'zining ma'muriy-boshqaruv organi, infratuzilmasi mavjud bo'lgan makonni anglatishini aniqlandi.

3. O'zbekiston Respublikasida turizmning rivojlantirish uchun mintaqalarda turistik imkoniyatlardan samarali foydalanish lozim. SHu o'rinda mazkur sohani rivojlantirishda eng muhim omil hisoblangan kadrlar tayyorlashga jiddiy etibor berish kerak. Xususan, Farg'ona vodiysi va boshqa viloyatlar oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali tarjimon va ekskursavodlar shunidek turizmning nazariy va ilmiy asoslarini chuqur biladigan ilmiy xodimlarni tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

4. Tadqiqot ob'ekti hisoblangan Namangan viloyatida turizmni tashkil etish va rivojlantirish uchun imkoniyatlar katta. Xususan, Namangan shuningdek uning tumanlaridagi mavjud turistik ob'ektlarning nihoyatda katta sayyohlik imkoniyatlariga ega ekanligini ta'kidlash joiz. SHu nuqtai nazardan BMIda mintaqa turizmni rivojlantirish uchun tumanlar bo'yicha imkoniyatlari hududiy taxlil etilishi hamda ularning tarkibiy jihatdan tabiiy, tarixiy, diniy, ma'daniy, etnografik turizmga ajratilgan holda o'rganish.

5. Namangan viloyati turizm ob'ektlarini o'rganish doirasida uning tumanlaridagi imkoniyatlari ball tizimida baholanishi mintaqaning hududiy turistik salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Tahlillarga ko'ra yuqori ballga ega bo'lgan Namangan shahri, Kosonsoy, Pop, CHust, Yangiqo'rg'on, CHortoq kabi tumanlarda kelajakda turizmga e'tiborni yanada kuchaytirish lozimligidan dalolat beradi.

6. Mintaqada istiqbolli marshrutlarni ishlab chiqish, mavjud turli ob'ektlarni ilmiy jihatdan baholash, ularni muxofaza qilish, viloyatda ekoturizmni tashkil etishda katta amaliy ahamiyatga ega. SHu nuqtai nazardan o'tkazilgan tadqiqotlarda yangi turizm yo'nalishlar asoslab berildiki ularni amalda joriy etish turizmni nafaqat Namanganda balki uning atroflaridagi hududlarda ham rivojlantirish imkonini beradi.

7. BMIda viloyat hududidagi turistik korxonalarining joylashuviga ko'ra rayonlashtirish ishlarini bajarganligi turistik korxonalarining imkoniyatlarini servis xizmat ko'rsatish va hududiy rekreatsiya tizimini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Madomiki, makroiqtisodiyotning har kanday sohasini rivojlantirish zahirida fuqarolarning avvalo moddiy va farovonligini oshirish yotar ekan, O'zbekistonda turizmning rivojlantirish va kelajakda ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun mintaqalar turizm solohiyatidan samarali foydalanish muhimdir. Olib borilgan izlanishlarning umumiy jihatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi taklif va mulohazalarni ko'rsatish mumkin:

- Turizm iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida rivojlantirish uchun ushbu sohaga keng yo'l ochish hamda uni ilmiy jihatdan chuqurroq va kengroq o'rganish maqsadga muvofiq;

- Mintaqalarda turizm industriyasi, infratuzilmasini shakllantirish ular bilan bog'liq masalalarga keng e'tibor berish kerak. Bu borada xususan Farg'ona vodiysi, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Qashqadaryo hamda boshqa viloyatlarda mazkur sohaga jiddiy yondashishni taqozo etadi;

- Namangan viloyatida turizm tarmoqlari tarkibini kengaytirish, uning hududiy tuzilmasini takomillashtirish, turistik imkoniyatlarni yuqori tumanlarda «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Namangan viloyat mintaqaviy bo'limi filiallarini ochish, shuningdek viloyatda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'mak berish;

- Mintaqada sayyohlik infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, tumanlarda madaniy va maishiy, kommunikatsiya va boshqa xizmat turlarini kengaytirish turistik korxonalarga boruvchi yo'llarni ta'mirlash va obodonchilik ishlarini olib borish, kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirish;

- Viloyatda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar, firma va korxonalarning istiqbol rejasini tuzishda ko'p maqsadli sayyohlik yo'nalishlarini tashkil etish kerak. Buning uchun viloyatning barcha tumanlaridagi turistik ob'ektlardan foydalanish lozim.

SHuningdek mazkur ishning xulosalari viloyatning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda, turistik ob'ektlardan samarali foydalanish hamda aholi salomatligini yaxshilashda, shu bilan bandlik darajasini oshirish va yangi ish o'rinlari barpo etishda ahamiyatlidir. Ayni vaqtda bajarilgan shuning ilmiy, amaliy tavsiyalari «O'zbekturizm»ning Namangan viloyati hududiy boshqarmasi hamda turistik tashkilot va firmalarning kelajak istiqbol rejalarini tuzishda foydali bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ldi O'zbekiston Respublikasi I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2012 yil 20 yanvar', № 14 (5434).
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demoraktik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi- T.: O'zbekiston, 2010.
3. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1998.
4. Karimov I.A. Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2011 yil 8 dekabr'.
5. Karimov I.A. Demokratik isloxotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish - mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.–T.: 19.T. O'zbekiston, 2011.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.
7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida; havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. -325 b.
10. Abdullaev O., Ismoilov R. Kichik va o'rta biznesni boshqarish. – Namangan, 2001.- 115 b.
11. Abdullaev Yo. Makroiqtisodiy statistika. –T.: Mehnat, 1998. –348 b.
12. Abdumalikov R. Turizm. – T.: O'qituvchi, 1978. - 90 s.
13. Abdumalikov R. Sayohat sahifalari. - T.: Yosh gvardiya, 1971. - b. 10.
14. Abukov A.X. Turizm na novom etape. – M.: Profizdat, 1983. - 295 s.
15. Abramov M.M. Guzarы Samarkanda. – T.: Uzbekistan, 1989. - 56 s.
16. Abduraxmonov Q.X., Mehnat iqtisodiyoti. – T.: Mehnat, 2004.
17. Agamirova Ye.V. Upravlenie personalom v turizme i gostinnichno-restorannom biznese: Praktikum. - M.: Izdatel'sko - trgovaya korporatsiya «Dashkov i K°», 2006. - 176 s. 2 ekz.
18. Azar V.I. Ekonomika i organizatsiya turizma. Metodologicheskie voprosы. – M.: Ekonomika, 1972. - 184 s.
19. Belyanskiy V.P. Prognozirovanie v industrii gostepriimstva i turizma: Uchebnik. Pod obщey red. Zaslujennogo deyatelya nauki Rossiyskogo Federatsii, d.e.n., prof. V.P. Belyanskogo. – M.: Izd-vo Ros. ekon. akad., 2005. – 278 s.
20. Bezborodov A. Yещe raz o mejdunarodnom turizme //Ekonomika i statistika, 1998, №3 - s 52.
21. Vaviova Ye.V. Oсновы Mejdunarodnogo turizma: Uchebnoy posobie. – M.: Gardrariki, 2005. – 160 s.
22. Vedenin Yu.A. Oпыt analiza protsessa razvitiya nekotoryx rekreatsionnyx funktsiy territorii //Rekreationsnaya ekonomika, M., 1976. –s 26-27.
23. Gerasimov I.P., Preobrajenskiy V.S Territorial'nye aspekty industrii otдыхa i turizma //Problemy industrii turizma Novosibirsk. 1970.- 192 s.
24. Dmitrevskiy Yu.D. Turistskie rayony mira. Uchebnoe posobie.-Smolensk: SGU, 2000.- 224 s.

25. Erdavletov S.R. Geografiya turizma: istoriya, teoriya, metody, praktika - Almaty. 2000 - 336 s.
26. Kim Ok K'yung. Sozdanie svobodnoy turisticheckoy zony //Ekonomika i statistika.- 1998. №3 - s. 38-39.
27. Kotler F., Bouen Dj., Meykenz Dj. Marketing. Gostepriimstvo. Turizm: Uchebnik dlya vuzov. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: YuNITN-DANA, 2005. – 1063 s. 2 ekz.
28. Komilova F.K. Xalqaro turizm bozori. –T.: TDIU, 2001. - 64 b.
29. Komilova F.K. Mehmonxona va restoran xo'jaligi. –T.:O'qituvchi, 2002. - 125 b.
30. Komilova F.K. Xalqaro turizm marketingi. –T.: TDIU 2007 y.-292 b.
31. Mironenko N.S., Pirojnik I.I., Tverdoxlebov I.T. Teoreticheskie osnovy rekreatsionnogo rayonirovaniya //Teoreticheskie problemy rekreatsionnoy ekonomiki.- M., 1989. s.80-90.
32. Nabiev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. - T.: Akademiya, Universitet, 2000.-87 b .
33. Nazarova K., Komilova F. O'zbekistonda turizm imkoniyatlarini kengaytirish //O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, №9, 2000. – b.48-49.
34. Ruzmetov B. Turizm – doxodnaya otrasl' natsional'noy ekonomiki. //Ekonomika i statistika №6, 1997. - s. 38-39.
35. Xodiev B. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
36. Soliev A., Yanchuk S., Usmanov M. Vliyanie rekreatsionnykh resursov na formirovanie polyusov i tsentrov rosta // Materialy mejdunarodnoy nauchno-teoreticheskoy konferentsii «Turizm i ekonomika» posvyashchennoy godu podderjki i razvitiya turizma v Kyrgyzstane - Osh., 2001 - s.60-65.
37. Taksanov A., Quvvatov N. Kogda vsem xorocho //Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana, №7, 2000 - b. 42-45.
38. Taksanov A. Modelirovanie yest' dajе v turizme //Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana, №3, 2000 - s.58-59.
39. Taksanov A.«Jemchujina vostok» v drevnem Samarkande //Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana, №9, 1999 - s. 48-49.
40. Tashmuradov T. Svobodnye eksportno-turisticheskie zony //Ekonomika i statistika, №1, 1998 - s.20-21.
41. Toshmurodov T, Karimov K. Sozdanie sovremennoy infrastruktury mejdunarodnogo turizma v Uzbekistane //Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana, №8, 1999 - s. 28-32.
42. Toshmuradov T., A'zamov S. Dunyo talabi mezonida bo'lsin desangiz,
43. // Iqtisod va xisobot, №5, 1997 - b. 8-10.
44. Hudayberdiev Z. Bandlik.(Ilmiy-ommabob risola). Namangan. 2003.
45. G'ulomov S., Ubaydullaeva R., Ahmedov E. Mustaqil O'zbekiston– T.: Mehnat, 2001 – 248 b.

Internet saytlari

1. UFSInvestmentCompany: Strategiya na 2012 god. – <http://bonds.finam.ru>
2. <http://www.bearingpoint.uz> – “O'zbekiston iqtisodiyoti” qo'llanmasiningg veb-sayti
3. <http://goldenpages.uz> – iqtisodiyotning eng so'nggi yangiliklari
4. <http://rea.ru> – Rossiya iqtisodiyot akademiyasining veb-sayti
5. <http://ballov.ru> –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.
6. <http://bankreferatov.ru> –diplom, dissertatsiya, referat va kurs ishlarining namuna variantlarini o'zida qamrab olgan veb-sahifa.